

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH
MARKAZI**

“Tasdiqlayman”

Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika
xodimlari malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali
direktori



G.A.Turaxodjaeva

2026 y.

Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

“Gematologiya va transfuziologiyada hamshiralik ishi”

(sikl bo‘yicha malaka oshirish guruhlar uchun)

Ishchi o‘quv dasturi

(144 - kredit)

Andijon-2026 y.

Tuzuvchilar:

G. Sodiqova

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon Filiali o'quv uslubiy bo'lim boshlig'i

D.Gapparova

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon Filiali o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

Taqrizchilar:

N.R. Abduvaxobova

Gospital terapiya va endokrinologiya Kafedrasi katta o'qituvchisi

D.B.Rasulova

Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi Andijon filiali onkogemotologiya bo'limi Mudirasi

Ishchi o'quv dasturi Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filialining Uslubiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi

« 6 » yanvar 2026 y.

bayonnoma № 1

Uslubiy bo'lim boshligi:



G.I. Sodiqova

Ishchi o'quv dastur Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Andijon Filialining pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi.

« 7 » yanvar 2026 yil.

bayonnoma № 1

Pedagogik kengash raisi



G.A. Turaxodjayeva

1. Kirish

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida o'rta tibbiyot xodimlari ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan.

Mazkur ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil

6 maydagi "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son va 2020 yil

7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi"buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr

333-sonli "O'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Milliy klinik protokollar bo'yicha tavsiyalardan foydalanilgan. Ishchi dastur modul tizimi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv fanning mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. Ishchi dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo'lib, kasbiy rivojlanish modulida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025 yil 15-avgustdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xodimlarning bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish xaqida" 255-sonli buyrug'i ijrosini bajarish maqsadida "Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish"moduli kiritildi. Ishchi dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo'lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlar hamda, mutaxassislik fanlar bo'yicha ta'lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan.

1.1. Maqsad:

O'qish natijasida "Gematologiya va transfuziologiyada hamshiralik ishi" bo'yicha o'rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarini takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, kasbiy darajasini oshirish va yangilash mavjud kompetensiyalarini takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarini egallash va kasbiy darajasini oshirish, o'rta tibbiyot xodimlarini qon kasalliklari bilan kasallangan

bemorlarni parvarishlash vaqtida har tomonlama yetuk, yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish, malakali tibbiy yordam ko'rsatish samaradorligini ko'tarish, yangi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

1.2. Vazifalar:

- umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, isbotlangan tibbiyotga asoslangan davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va tibbiy davolash muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashxislash va parvarishlash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish.
- sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va meyeriy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;
- aholi salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash, tibbiy yordamga muxtoj bemorlarni zamonaviy apparaturalarda tekshirishga tayyorlash, tibbiy yordam ko'rsatish chora tadbirlari, hozirgi kunda qo'llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to'g'risida ma'lumot berish;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o'rgatish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jixatlarini shakllantirish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- gematologiya va transfuziologiya statsionarlarida shifoxona ichi infeksiyalari yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishni ta'minlaydigan tashkiliy, davolash-profilaktik, sanitariya-gigiyenik, epidemiyaga qarshi va dezinfeksiya qilish tadbirlarini olib borish;
- tibbiyot sohasidagi yangiliklar, zamonaviy apparaturalar yordamida bemorlarni tekshirishga tayyorlash va parvarishlash, salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlashni olib borish;
- bemorlar hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish;
- favqulodda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarni tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (qontingenti):

O'quv dasturi gematologiya bo'limi hamshiralari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan hamshiralar uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasto'rni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, shaxslararo muloqot ko'nikmalari asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- aholi salomatligini saqlash va ijtimoiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda hamshiralik faoliyatini amalga oshirish;

- gematologiya va transfuziologiya yoʻnalishi hamshirasining oʻzida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yoʻlida aniq maqsad va puxta oʻylangan vazifalar asosida amaliy harakatlarni tashkil etish;
- kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalarni egallash va ularni amalda yuqori darajada qoʻllay olish;
- mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni oʻrganish, yangi maʼlumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va oʻz faoliyatida qoʻllay bilish;
- kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish, sogʻlom psixologik muhitni yarata olish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni oʻz vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;
- kasbiy oʻsishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda oʻz ichki imqoniyatlarini namoyon qilish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish;
- oʻz kasbiy salohiyati doirasida sanitar oqartuv, satinar-gigiyenik, profilaktik, reabilitatsion, diagnostik va reanimatsion tadbirlarni, vrach koʻrsatmalarini amalga oshirish;

1.5. Dastoʻrning dolzarbligi:

Oʻquv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralarini qoʻllash, gematologiya boʻlimi hamshirasini aholiga hozirgi davr talablariga mos ravishda zamonaviy, malakali, sifatli tibbiy xizmat koʻrsatishni taʼminlaydi. Oʻquv dasturi amaliyotga asoslangan va muammolarga yoʻnaltirilgan yondoshuv asosida amaliy tibbiy yordamning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, oʻquv materiallari va jarayonlar Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash tizimining va mutaxassislikning oʻziga xos kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 kredit, haftasiga 36 kredit).

1.7. Oʻqish shakli:

- kunduzgi
- on/offline, masofaviy /anʼanaviy oʻqish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashgʻulotlarni oʻtish tartibi: Mashgʻulotlar Oʻzbekiston Respublikasi sogʻliqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish toʻgʻrisidagi” 160-son buyrugʻi va markazning ichki tartib-qoidolari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashgʻulotlar 8:30 da boshlanib, 13:10 da tamom boʻladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. Malaka oshirishdan soʻng: oʻquv kursni toʻliq oʻzlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Gematologiya va transfuziologiyada hamshiralik ishi” boʻyicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TAʼLIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan taʼlim (natijalari)dan soʻng tinglovchi kompetensiyasi:

- oʻrta tibbiyot xodimining fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va

uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;

- o‘z-o‘zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish;
- aholi orasida tibbiy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ‘ibot tadbirlarni olib borish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishda yangi texnologiyalarni keng tadbiq etish;
- hamkasblar, hamshiralar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;
- intizomiy, ma‘muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo‘yicha o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish tayyorligi va amalga oshirishi;
- so‘rov o‘tkazish, jismoniy ko‘rikdan o‘tkazish, ambulator va statsionar bemorlarga tibbiy xujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish;
- kasallikni erta va yashirin turlarini, havf omillarini aniqlash uchun zamonaviy birlamchi, ikkilamchi profilaktik ishlarni amalga oshirish;
- kasalliklarini aniqlashda qo‘llaniladigan zamonaviy tibbiy tekshirish usullarini o‘zlashtirish;
- aholi o‘rtasida to‘g‘ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash, o‘sib kelayotgan avlodni sog‘lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- aholi o‘rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, ko‘p tarqalgan kasalliklarni oldini olish, dispanser ko‘zatuvinini olib borishni tashkillashtirishni takomillashtirish;
- hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- tibbiyot sohasidagi yangiliklar, tibbiyotdagi zamonaviy tekshiruv usullari, ularga bemorlarni tayyorlash;
- hayotga havf soluvchi holatlarda bemorlarga tezkor yordam ko‘rsatish chora-tadbirlarini o‘tkazish;
- bemorlarga tashxis qo‘yishda zamonaviy tekshirish usullaridan foydalanish;
- muolajalarga bemorni ruhan va jismonan tayyorlash va parvarishlash;
- hozirgi kunda qo‘llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to‘g‘risida boxabar bo‘lish;
- qon guruhleri, rezus faktorni aniqlash usullari va texnikasini takomillashtirish;
- qon va qon yaratish a‘zolari kasalliklari bo‘lgan bemorlarni zamonaviy laborator-instrumental tekshirish usullarini qo‘llashga tayyorlash;
- postgemotransfuzion reaksiyalar va ularning asoratlarida shoshilinch yordam ko‘rsatish va hamshiralik parvarishi ko‘nikmalarini mukammallashtirish;
- gemotransmissiv infeksiyalar va kasalxona ichi infeksiyasini tarqalishini oldini olishda hamshiralik parvarishini olib borish;
- mikroskopik va serologik tekshiruvlar uchun preparatlar tayyorlash;

- donorlarga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish va hamshiralik parvarishi;
- gematologiyada kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarda hamshiralik parvarishini olib borish ko‘nikmalarini mukammallashtirish;
- favqulotda xolatlarda tez tibbiy yordam ko‘rsatish.

3.0.DASTUR MAZMUNI.

3.1. «Gematologiya va transfuziologiyada hamshiralik ishi» kursi ishchi o‘quv rejasi.

№	Modul va mavzular nomi	Auditoriya mashg‘ulot soatlari				Attestatsiya
		Kredit	Nazariy	Amaliy	Seminar	
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	16	16		
1.1	Modul: Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish	4	4	-		
1.1.1	Sog‘liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari.	2	2	-		
1.1.2	Tibbiyot sohasida korrupsiyaviy jinoyatlarning yuzaga kelish omillari va javobgarlik masalalari. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik tahlili va davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, korrupsiyani oldini olishga doir amalga oshirilayotgan ishlar	2	2	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.2.1	Zamonaviy axborot texnologiyalari va ularning hamshiralik amaliyotidagi o‘rni	2	2	-		
1.2.2	Raqamli hamshiralik amaliyoti - elektron tibbiy yozuvlar, bemor ma’lumotlarini kiritish va tahlil qilish	2	-	2		
1.2.3	Ma’lumotlar xavfsizligi, sun’iy intellekt va yangi tibbiyot platformalari	2	-	2		
1.3	Modul: Infeksion nazorat.	6	4	2		
1.3.1	Infeksion nazorat va sanitariya epedimiologiya sohasida qo‘llaniladigan me’yoriy hujjatlar.	2	2	-		
1.3.2	Karantin va o‘ta havfli yuqumli kasalliklar profilaktikasi.OIV /OITS haqida tushuncha.	2	2	-		

1.3.3	DPM larda shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi.	2	-	2		
1.4	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.4.1	Aseptika va antiseptika haqida tushuncha. Sterilizatsiya jarayoni. Tibbiy asboblarni sterilizatsiyadan oldingi tozalash qoidalari va usullari.	2	2	-		
1.4.2	Sterilizatsiya turlari, zamonaviy usullari. Gazli, plazmali va ozonli sterilizatsiya usullari.	2	-	2		
1.4.3	Sterilizatsiya xonasida texnika xavfsizligi qoidalari.	2	-	2		
1.5	Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
1.5.1	Salomatlik tushunchasi. Salomatlik darajasi ko'rsatkichlari	2	2	-		
1.5.2	Salomatlik indeksini baholash.	2	-	2		
1.5.3	Sog'lom turmush tarzi yo'nalishlari. To'g'ri ovqatlanish mezonlari.	2	2	-		
1.5.4	Jismoniy faollik. Asosiy sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar.	2	-	2		
1.5.5	Jismoniy mashqlarni turli yoshdagi sog'lom odamlarda, hamda bemorlarda qo'llash metodikasi.	2	-	2		
2.0	Mutaxassislik fanlar	104	44	60		
2.1.	Modul: O'zb. Resp. SSVning gematologiya va transfuziologiya sohadagi qaror va buyruqlar, me'yoriy hujjatlar va islohotlar.	6	2	4		
2.1.1.	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi gematologiya va transfuziologiya sohadagi qaror va buyruqlar.	2	2	-		
2.1.2.	Respublika qon xizmati strukturasi va bajaradigan vazifalari, qon xizmati sohasidagi huquqiy me'yoriy hujjatlar.	2	-	2		
2.1.3	Kasbiy kommunikatsiya va shaxslararo muloqot.	2	-	2		
2.2.	Modul: Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari bo'lgan bemorlarni zamonaviy laborator va instrumental	6	2	4		

	tekshirish usullari.					
2.2.1.	Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari bo'lgan bemorlarni fizikal tekshirish usullari.	2	2	-		
2.2.2.	Qon va qon yaratish a'zolari kasallik-lari bo'lgan bemorlarni zamonaviy instrumental tekshirish usullari.	2	-	2		
2.2.3.	Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari bo'lgan bemorlarni zamonaviy laborator tekshirish usullari.	2	-	2		
2.3.	Modul: O'rta tibbiyot xodimlarining gematologiya bo'limida standart hamshiralik ish jarayoni. Qon guruhleri, rezus faktorni aniqlash usullari va texnikasi.	6	2	4		
2.3.1	O'rta tibbiyot xodimlarining gematologiya bo'limida standart hamshiralik ish jarayoni.	2	2	-		
2.3.2.	Qon va qon komponentlarini quyishning zamonaviy qoidalar, muolajaga bemor va kerakli tibbiy jixozlarni tayyorlash.	2	-	2		
2.3.3	Qon guruhleri, rezus faktorni aniqlash usullari va texnikasi.	2	-	2		
2.4.	Modul: Qon xizmatida faoliyat olib boruvchi o'rta tibbiyot xodimlarini donorlar bilan ishlashdagi funksional majburiyatlari va vazifalar.	12	4	8		
2.4.1	Donorlik va donorlikka bo'lgan talablar.	2	2	-		
2.4.2.	Qon olish bo'yicha yo'riqnomaga amal qilish. Donorlarda zamohaviy diagnostik ko'rikdan o'tkazish, hisobga olish.	2	-	2		
2.4.3.	Donorlarlik tekshiruvlarni standart algoritim bo'yicha o'tkazish.	2	-	2		
2.4.4.	Donorlarni sog'lig'ini muhofaza qilish.	2	2	-		
2.4.5.	Donorlardan qon va qon komponentlarini olishda o'ta tibbiyot xodimlarining xavfsizligi.	2	-	2		
2.4.6.	Donorlarga samarali davo muolajalarini o'tkazish va hamshiralik parvarishi.	2	-	2		
2.5.	Modul: Qon va uning tarkibiy qismlarini quyish. Qon preparatlarini tayyorlash prinsiplari.	18	10	8		
2.5.1	Gemotransfuziyaning organizimga tas'ri va gemotransfuziya usullari.	2	2	-		

2.5.2.	Qon preparatlarini tayyorlash prinsiplari va ularni qonservatsiya qilish qoidalari.	2	2	-		
2.5.3.	Qon va uning tarkibiy qismlarini quyishning afzalliklari va operatsiyasiga roziligi ruxsatnomasi olish namunasini to'ldirish.	2	-	2		
2.5.4	Gemodinamik ta'sirli qon o'rnini bosuvchilar va shokka qarshi eritmalar, turlari.	2	2	-		
2.5.2.	Zaxarlardan tozalovchi va kislorod tashuvchi eritmalar, turlari.	2	2	-		
2.5.6.	Suv va tuz, ishqoriy-kislotali muvozanatni ta'minlovchi preparatlar va ularni qo'llash.	2	-	2		
2.5.7.	Gemotransfuziyaga mutloq va nisbiy ko'rsatmalar va qo'llanilishi taqiqlangan holatlar.	2	2	-		
2.5.8.	Qonning yaroqligini aniqlash va ularni o'tkazish.	2	-	2		
2.5.9.	Gemotransfuziyani standart algoritim bo'yicha o'tkazish.	2	-	2		
2.6	Modul: Postgemotransfuzion reaksiyalar va asoratlarini oldini olish, hamshiralik parvarishini olib borish.	18	6	12		
2.6.1	Mexanik asoratlar va havo emboliyasi va tronbozlarda hamshiralik parvarishini olib borish.	2	2	-		
2.6.2	Organizm rektivligi bilan bilan bog'liq asoratlarni oldini olishda hamshira taktikasi.	2	-	2		
2.6.3	Gemotransfuziya asoratida hamshiralik parvarishi.	2	-	2		
2.6.4.	Postgemotransfuzion reaksiyalar, bevosita va uzoq muddatli asoratlarini oldini olish, hamshiralik parvarishini olib borish.	2	2	-		
2.6.5.	Massiv transfuziya sindromi. Bakterial shok, gemolitik reaksiyalar, o'tkir gemoliz, anafilaktik shokda shoshilinch yordam.	2	-	2		
2.6.6.	O'tkir volemik yuklama, antitanachalar bilan bog'liq reaksiyalar, allergik, pirogen posttransfuzion asoratlar va ularda shoshilinch yordam	2	-	2		
2.6.7.	Posttransfuzion trombositopeniya, sabablari, belgilari.	2	2	-		
2.6.8.	Transfuziyada yurak qon-tomir tizimi, jigar	2	-	2		

	va buyraklarda ko'zatiladigan asoratlar va ularda yordam ko'rsatish.					
2.6.9.	Gemotransfuziya protokolini va talabnomani to'ldirish. Postgemotransfuzion reaksiyalar va ularning asoratlarida hamshiralik parvarishini olib borish.	2	-	2		
2.7	Modul: Qon yaratish tizimi o'sma kasalliklari. Gemalologiyada klinik sindromlar va bemorlarga hamshiralik parvarishi.	12	4	8		
2.7.1.	Qon yaratish tizimi o'sma kasalliklari leykoz, limfoleykoz, miyelom kasalliklari sabablari, klinik belgilari, asoratlari.	2	2	-		
2.7.2.	Qon yaratish tizimi o'sma kasalliklari leykoz, limfoleykoz, miyelom kasalliklari bo'lgan bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari.	2	-	2		
2.7.3.	Qon yaratish tizimi o'sma kasalliklari leykoz, limfoleykoz, miyelom kasalliklari bo'lgan bemorlarda asoratlarini oldini olish va hamshiralik parvarishini olib borish.	2	-	2		
2.7.4.	Limfadenopatiya, splenomegaliya, ECHT sindromi, Anemiya, kasalligida hamshiralik parvarishi.	2	2	-		
2.7.5.	Gemorragik diatez, idiopatik trombositopenik purpura, gemofiliya, gemorrogik vaskulit kasalligida hamshiralik parvarishi.	2	-	2		
2.7.6.	Gemorragik diatez, idiopatik trombositopenik purpura, gemofiliya, gemorrogik vaskulit kasalligida shoshilinch yordam ko'rsatish.	2	-	2		
2.8.	Modul:Gemotransmissiv infeksiyalar. Qon xizmati muassasalarida kasalxona ichi infeksiyasini tarqalishini oldini olishda hamshiralik parvarishini olib borish.	14	8	6		
2.8.1.	Gemotransmissiv infeksiyalar haqida zamonaviy ma'lumotlar.	2	2	-		
2.8.2.	OIV/OITS klinik belgilari. Tibbiyot xodimlarini OIV/OITSDan himoyalaniishi.	2	-	2		

2.8.3.	Avariya xolatlari va ularda tibbiyot xodimlarining harakatlar algoritmini bajarilishi	2	-	2		
2.8.4.	Virusli gepatit B, S, E, klinik belgilari, davolash, profilaktikasi	2	2	-		
2.8.5.	Ishlatilgan ashyolar va biologik chiqindilarni zararsizlantirish algoritmi.	2	-	2		
2.8.6.	Gemotransmissiv infeksiyalar bilan ogʻrigan bemorlarda hamshiralik parvarishi.	2	2	-		
2.8.7.	Gemotransmissiv infeksiyalarda kasalxona ichi infeksiyasini oldini olish chora-tadbirlari.	2	2	-		
2.9.	Modul: Qon tarkibiy qisimlarini quyishda immunoserologik tekshiruvlar.	6	4	2		
2.9.1.	Immunoserologik koʻzaturv texnikasi.	2	2	-		
2.9.2.	Donor va retsipiyent qonini individual moslik sinamasi. Rh mosligi va individual moslik sinamasi va ogohlantirish meʼyorlari.	2	2	-		
2.9.3.	Mikroskopik tekshiruvlar uchun preparatlar tayyorlash. Bakterologik sinama, ularga koʻrsatmalar va bemorlarni tayyorlash.	2	-	2		
2.10.	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam koʻrsatish.	6	2	4		
2.10.1.	Favqulodda vaziyatlar, ularning sabablari, tasnifi va dastlabki tibbiy saralash asoslari.	2	2	-		
2.10.2.	Favqulodda holatlarda tibbiy yordam koʻrsatish tamoyillari: saralash, evakuatsiya, qon ketish, kuyish, sinish va jarohatlar.	2	-	2		
2.10.3.	Shoshilinch holatlarda reanimatsion yordam koʻrsatish.	2	-	2		
3.0.	Tanlov fanlar moduli	4	-	-	4	
3.1	Oʻzbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.	4	-	-	4	
4.0	Attestatsiya (integral sinov)	4				4
	Jami	144	60	76	4	4

3.2.1 Modul mazmuni

«Gematologiya va transfuziologiyada hamshiralik ishi» malaka oshirish kursi o'quv modullarining mazmuni

1.0.Kasbiy rivojlantirish moduli.

1.1Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati 4 kredit

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	4 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikmalar	PF-158- "O'zbekiston 2030" strategiyasi mazmun mohiyati haqida Tibbiyotdagi islohotlar va korrupsiya nima? Tibbiyotdagi islohotlar – bu sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, moliyaviy va tashkiliy samaradorlikni yaxshilash bo'yicha amalga oshiriladigan o'zgarishlar. Misol: elektron sog'liqni saqlash tizimlari, poliklinika va dorixonalarni raqamlashtirish, diagnostika va davolash standartlarini takomillashtirish. Korrupsiya – bu tibbiyot tizimida qonunga xilof ravishda shaxsiy foyda olish uchun amalga oshiriladigan harakatlar. Misol: noto'g'ri retsept yozish, tibbiy xizmat uchun ortiqcha to'lov, shifokor tomonidan bemorning manfaatlarini e'tiborsiz qoldirish. Tibbiyot mutaxassisi uchun bu ikki jihatni tushunish va ularga qarshi samarali kurashish kompetensiya talab qiladi. 2. Kompetensiya tushunchasi Kompetensiya – bu muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka majmui. Tibbiyotdagi islohotlar va korrupsiya bo'yicha zarur kompetensiyalar A) Bilim kompetensiyalari Tibbiyot tizimidagi islohotlar, ularning maqsad va prinsiplarini bilish Sog'liqni saqlash qonunchiligi va etika normalarini tushunish Korrupsiyaning turlari va oqibatlarini bilish B) Amaliy ko'nikmalar Sog'liqni saqlash jarayonlarini samarali va shaffof boshqarish Resurslardan tejamkor va qonuniy foydalanish Korrupsiya holatlarini aniqlash va ularga munosabat bildirish

	C) Analitik va qaror qabul qilish kompetensiyalari Tibbiyot jarayonlarida islohotlarni baholash Korrupsiya xavfini aniqlash va oldini olish strategiyasini ishlab chiqish Qaror qabul qilishda axloqiy va qonuniy asoslarni hisobga olish D) Kommunikativ kompetensiyalar Bemorlar, jamoa va rahbariyat bilan shaffof va samarali muloqot qilish Korrupsiyaga qarshi tashabbuslarni targ'ib qilish Axborot va trening orqali xodimlarni islohotlar va etikaga o'rgatish E) Shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalar Axloqiy prinsiplarni saqlash Javobgarlik va fidoyilik Sog'liqni saqlash tizimini shaffof va adolatli qilishga intilish
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	1. Sovg'alar va ishbilarmonlik mehmondo'stligi bilan bog'liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar: • Qachon sovg'a berish yoki qabul qilish qonunga zid va korrupsiya sifatida baholanishi mumkinligini; • Qonuniy ishbilarmonlik munosabatlari bilan shaxsiy manfaat o'rtasidagi farqni; • Qonun va ichki hujjatlarda belgilangan sovg'alarni qabul qilish/bosh tortish qoidalarini; • Sovg'a yoki mehmondo'stlik orqali ta'sir o'tkazish holatlari bilan bog'liq jiddiy xavf-xatarlarni. • Uchinchi shaxslar orqali pul yoki sovg'a qabul qilish kabi yashirin xavflarni aniqlashni. 2. Korrupsiyaviy harakatlar tushunchasi va ularning turlari: • Korrupsiyaviy xatti-harakatlar (pora berish/olish, suiste'mol qilish, manfaatlar to'qnashuvi, soxta hujjat tayyorlash va h.k.) nima ekanini; • Davlat xizmatchilari, tibbiyot xodimlari va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy harakatlar turlari. 3. Korrupsiyaviy harakatlar uchun intizomiy javobgarlik: • Qonun va ichki meyoriy hujjatlarga ko'ra xodimlar tomonidan sodir etilgan intizomiy buzilishlarni; • Intizomiy choralari (hayfsan, lavozimdan ozod etish, tanbeh va h.k.) qanday holatlarda qo'llanilishini; • Xizmat tekshiruvi, intizomiy ish yuritish va qaror qabul qilish tartibini.

	4. Korrupsiyaviy harakatlar uchun jinoiy javobgarlik: • O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan korrupsiya bilan bog‘liq moddalar (210-modda – pora berish, 211-modda – pora olish, 205-modda – hokimiyat yoki mansab vakolatini suiste’mol qilish va b.); • Jinoyat tarkibi, javobgarlik turlari va jazo choralari (jarima, ozodlikdan mahrum etish va h.k.); • Aybdor shaxslarga nisbatan amaliyotda qanday jazo qo‘llanilishi mumkinligi.
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	1.Sovg‘alar va mehmondo‘stlik bilan bog‘liq xatarlarni baholash va to‘g‘ri munosabatda bo‘lish ko‘nikmasi • Qonuniy va noqonuniy sovg‘a/mehmondo‘stlik o‘rtasidagi farqni anglash; • Sovg‘a yoki xizmat qabul qilishdan bosh tortish yuzasidan to‘g‘ri qaror qabul qilish; • Ishbilarmonlik munosabatlarida xolislik va kasb etikasiga amal qilish. 2. Fuqarolar bilan tozalik va shaffoflikka asoslangan munosabat o‘rnatish ko‘nikmasi • O‘zaro munosabatlarda xizmat vazifalariga tayanish, shaxsiy manfaatlardan qochish; • Qontragentlar bilan kelishuvlarda korrupsiya xavfini oldindan ko‘ra bilish; • Tashqi ta’sirlarga moyillikdan saqlanish va qarorlarni mustaqil qabul qilish. 3. Hujjatlar ekspertizasi va ijrosini xolis va shaffof amalga oshirish ko‘nikmasi • Hujjatlar bilan ishlashda faktlar va dalillarga tayanish; • Ijro nazorati jarayonida “shaxsiy munosabatlar” emas, qonun va reglamentlarga asoslanish; • Hujjatlar orqali manfaatli tarafni qo‘llab-quvvatlash xavfini aniqlash va undan saqlanish. 4. Korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida xabardor qilish ko‘nikmasi • Korrupsiya holatlarini qanday va qayerga xabar qilishni aniq bilish; • Xabar berishdagi anonimlik, himoya va huquqiy kafolatlardan xabardor bo‘lish; • Xabar mazmunini aniq, asosli va ishonchli tarzda shakllantirish. 5. Qonunga muvofiq murojaat qilish va xabar berish ko‘nikmasi Korrupsiya holatlari yuzaga kelganda qanday organlarga,

		qanday tartibda murojaat qilishni bilish;
O'quv mazmuni:	moduli	Korrupsiya tushunchasi va uning turlari haqida bilim berish; Milliy va xalqaro qonunchilikni tahlil qilish; Korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini o'rganish; Talabalarda huquqiy madaniyatni shakllantirish; Amaliy holatlar tahlili asosida huquqiy fikrlashni rivojlantirish. 1. Korrupsiya tushunchasi – Korrupsiya nima ekanligi, uning ta'rifi, mohiyati va kelib chiqish sabablari; – Korrupsiyaning asosiy turlari: pora olish va berish, xizmat mavqeidan suiiste'mol qilish, manfaatlar to'qnashuvi va h.k. 2. Milliy qonunchilik asoslari – "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning asosiy normalari; – O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksdagi korrupsiyaga oid moddalar; – Korrupsiyaga qarshi Milliy strategiya va dasturlar mazmuni. 3. Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari – Korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining maqsadlari va vazifalari; – Hukumat organlari va jamoatchilikning bu sohadagi o'rni; – Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash orqali korrupsiyani kamaytirish usullari. 4. Huquqiy madaniyat va ong – Korrupsiyaning jamiyatga va davlatga keltiruvchi zararlari haqida tushuncha; – Fuqarolarning huquqiy bilimi va mas'uliyatining ahamiyati; – Etik meyorlarga amal qilish va halollikning ahamiyati. 5. Amaliy misollar tahlili orqali bilimlarni mustahkamlash – Real hayotdagi korrupsiya holatlarini tahlil qilish; – Ularni huquqiy nuqtai nazardan baholash; – Qonuniy va samarali yechimlar taklif qilish qobiliyatini rivojlantirish. Tibbiyot sohasida korrupsiyaviy jinoyatlar tushunchasi – Pora olish va berish, xizmat mavqeidan suiiste'mol qilish, dori vositalari bilan bog'liq jinoyatlar. 2. Korrupsiyaviy jinoyatlarning asosiy sabablari – Nazoratning sustligi, tizimdagi shaffoflik yetishmasligi,

	huquqiy madaniyat pastligi, jamiyatda jazosizlik hissi. 3. Ichki va tashqi omillar – Tibbiyot muassasalaridagi tashkiliy kamchiliklar; – Aholining korrupsiyaga nisbatan murosali munosabati. 4. Korrupsiya uchun javobgarlik turlari – Jinoiy javobgarlik: Jinoyat kodeksining 210, 211, 212-moddalari; – Ma'muriy va intizomiy javobgarlik: jarima, ishdan bo'shatish, ogohlantirish.
Adabiyotlar: 1. PF-158-son 11.09.2030 .”O‘zbekiston-2030”strategiyasi 2. O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli Qonuni // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/3088008. 3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/111453. 4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // [Elektron manba]. URL: https://www.lex.uz/acts/111460. 5. O‘zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/97664. 6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2752-sonli Qarori // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/3105125. Elektron ta'lim resurslari -www.minzdrav.uz– www.gov.uz www.press-service.uz www.parlament.gov.uz - www.uza.uz - www.cbu.uz- - www.lex.uz - www.ziyonet.uz	

1.2. Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikmalar	Tibbiyotda raqamli texnologiyalar bo'yicha zarur kompetensiyalar A) Bilim kompetensiyalari Raqamli texnologiyalar va ularning tibbiyotdagi qo'llanilishini bilish Elektron sog'liqni saqlash tizimi (EHR/EMR) va

	telemeditsina printsiplarini tushunish Ma'lumot xavfsizligi va bemor maxfiyligini himoya qilish qonunchiligini bilish AI va diagnostika dasturlarining asosiy ishlash printsiplari B) Amaliy ko'nikmalar Elektron sog'liqni saqlash tizimidan samarali foydalanish Telemeditsina orqali bemorlar bilan masofaviy qonsultatsiya o'tkazish Raqamli diagnostika vositalarini ishlatish (masalan, laboratoriya natijalarini tahlil qilish) Ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va uzatish C) Analitik va qaror qabul qilish kompetensiyalari Raqamli ma'lumotlardan tahlil qilish va xulosalar chiqarish Diagnostika va davolash bo'yicha qarorlarni AI va boshqa raqamli vositalardan foydalangan holda qabul qilish Ma'lumotlar xavfsizligi va etik cheklovlarni hisobga olish D) Kommunikativ kompetensiyalar Bemorlar va hamkasblarga raqamli texnologiyalarni tushuntirish Telemeditsina qonsultatsiyalarida aniq va samarali muloqot qilish Raqamli tizimlar bo'yicha jamoa bilan hamkorlik qilish
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Kompyuterga axborot kiritish va axborot olish qoidalarini; • kompyuterni tuzilishi to'g'risida qisqacha ma'lumotni, kompyuterning foydali va zararli tomonlarini, kompyuterda ishlash jarayonida sanitariya qoidalariga rioya qilishni; • tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan ishlashni; • sog'lom jamiyat qurishda axborotlashtirishning o'rnini; • sog'liqni saqlash tizimini axborotlashtirishda jahon tajribalarini; • axborotlarga ishlov berish, kiritish va chiqarish qurilmalari va ularning tavsifini; • tibbiyotda aloqa va kommunikatsiya vositalarini;

	• ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish; • xozirgi kunda tibbiyotda informatsion texnologiyalari sohasi rivojlanib kelmoqda-tibbiyot xodimlari uchun planshetlardan foydalanib, <i>online</i>- registratsiya qilish va ulardan foydalana olishi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• kompyuter texnikasi bilan ishlashda texnika havfsizligini; • dasturlar bilan ishlashni; • ma'lumotlar bazasi yaratish, ular ustida ishlashni va dasturlash asoslarini; • kompyuter grafik usullaridan foydalana olishni; • tibbiy axborotlar almashinuvi va uni izlashda internet tarmog'ida ishlashni; • elektron pochta dasturi bilan ishlashni; • AKT sog'liqni saqlash tizimida qo'llashni.
O'quv moduli mazmuni:	Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Tibbiyotda qo'llanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi qurilmalarining dasturiy va texnik ta'minoti to'g'risida nazariy va amaliy bilimlar Tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish va ulardan kasallikning oldini olish yoki davolashda qo'llash. Axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilish.

Adabiyotlar:

- 1.O.N.Djurayev Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) Toshkent 2020y
- 2.Aminov S.M "Axborot kommunikatsion texnologiyalar" 2020 y
- 3.Tursunov, Nazarov "Ta'limda axborot texnologiyalari" 2021 y
- 4.Ayupov Ravshan Hamdamovich "Ta'limda axborot texnologiyalari" TDPU, 2020 y
5. Informatika asoslari
Mualliflar: M. Aripov, A. Haydarov
Yuklab olish:
Informatika asoslari PDF
(https://uzsmart.uz/kitoblar/view/6551?utm_source=chatgpt.com)
6. Informatika va axborot texnologiyalari
Muallif: Z.S. Abdullayev

7. Kompyuter savodxonligi kitobchasi Yuklab olish: Kompyuter savodxonligi PDF(https://pdfbox.uz/books/uzbek/11329-kompyuter-savodxonligi-kitobchasi?utm_source=chatgpt.com) 8. Kompyuterli va raqamli texnologiyalar Mualliflar: Hoshimov, Tulyaganov 9. Informatika (klassik darslik) Muallif: N.V. Makarova Elektron ta'lim resurslari: 1. DMED haqida asosiy tushuncha (Kapital.uz) 2. O'zbekcha tayyor adabiyotlar (PDF / DOC) (soff.uz) 2. DMED bo'yicha test savollar (Hujjat24)
--

1.3.Modul: Infekcion nazorat.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyani ng shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikmalar	Infekcion nazoratda kompetensiya Bu — tibbiyot xodimi yoki mutaxassisning bilim, ko'nikma va mas'uliyatli yondashuvi majmui. Kompetensiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: ☐ Bilimlar: • Infekcion kasalliklar yuqish yo'llari • Sanitariya-epidemiologik me'yorlar • Dezinfeksiya va sterilizatsiya turlari ☐ Amaliy ko'nikmalar: • To'g'ri qo'l yuvish texnikasi • Himoya vositalarini to'g'ri kiyish va yechish • Asboblarni xavfsiz qayta ishlash ☐ Mas'uliyat va xulq-atvor: • Qoidalarga qat'iy rioya qilish • Infeksiya xavfini baholay olish • Favqulodda holatlarda tezkor choralar ko'rish
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlarini (SanQvaN); • davolash-profilaktika muassasalariga qo'yiladigan sanitar talablarni va "infekcion nazorat komissiyasi" ish faoliyatini; • sanitar me'yor va qoidalar bo'yicha amaldagi hujjatlarni; • OIV/OITSGa oid normativ hujjatlarni;

	• OIV etiologiya va patogenezini, epidemiologiyasini; • OIV yuqish yo‘llari, tekshirish usullari, klinikasi va bemorlar parvarishini; • kasalliklardan (COVID -19) himoyalash tamoyillarini.
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda SanQvaMlarga rioya qilishni; • muolajalar vaqtida avariya holatlari yuzaga kelishini oldini olishni; • avariya holatlari yuzaga kelganda o‘tkaziladigan chora-tadbirlar yig‘indisini; • o‘ta xavfli va karantin infeksiyalarda epidemiyaga qarshi o‘tkaziladigan chora-tadbirlarni; • himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibini. • qo‘llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo‘llarni yuvish tartibini;
O‘quv moduli mazmuni:	Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish borasida qabul qilingan normativ hujjatlar. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda akusherlarning vazifalari. Tibbiy muolajalar orqali yuqadigan kasalliklarni oldini olish. Yuqumli kasalliklar (o‘ta xavfli va karantin infeksiyalar, OITS)ni tarqalishini oldini olish. OIV/OITSga oid normativ hujjatlar. OIV etiologiya va patogenezini, epidemiologiyasi. OIV/OITS infeksiyasi. Kasalliklardan (COVID19) himoyalash tamoyillari. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.
Tavsiya etiladigan adabiyotlar 1. San. Q va M. № 0342/17 “ DPMLarda shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi” 10 yanvar 2017 y. 2. San. Q va M. № 03-17-15.”O‘zbek. Res. davolash- profilaktika muassasalarida chiqindilarni yig‘ish, saqlash va yo‘q qilish sanitariya qoidalari va meyorlari” 3. V.N. Turaqulov, X.A. Raxmatova, N.A. Avezova.”Yuqumli kasalliklarda xamshiralik parvarishi” O‘quv qo‘llanma. Navoi nashriyot. 2019 yil. 4. F.I Salomova, Sh.T Iskandarova “Gigiyena. Tibbiy ekologiya” Toshkent-2020 5. S.B. Israilova “Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati” o‘quv qo‘llanma. Turon nashr. Samarqand-2026 https://e-library.sammu.uz/uz/book/5400 6. COVID-19 bo‘yicha milliy qo‘llanma JSST. O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi. 2020 yil 26 mart. 7. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi sayti → rasmiy sanitariya me‘yorlari va hujjatlar 8. Ziyonet → bepul darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar	

Elektron ta'lim resurslari:

<http://www.edu.uz>

<http://www.pedagog.uz>

www.tma.uz,

www.lex.uz

1. <https://ru.pinterest.com/vkhamidov/>

1.4.Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikmalar	Sterilizatsiya jarayonida texnika xavfsizligi — xodimlar salomatligi va atrof-muhitni himoyalashning asosiy omili. Kompetensiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: • Nazariy bilimlar: sterilizatsiya usullarining fizik-kimyoviy asoslarini bilish • Amaliy ko'nikmalar: uskunalarni to'g'ri ishlatish va nazorat qilish • Xavf-xatarni baholash: issiqlik, bosim, kimyoviy va biologik xavflarni aniqlash • Me'yoriy hujjatlarga rioya qilish: sanitariya qoidalari va xalqaro standartlar • Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik: nosozlik yoki avariya holatida to'g'ri harakat qilish 3. Zamonaviy yondashuvning ahamiyati Zamonaviy sterilizatsiya texnologiyalarini joriy etish: • infeksiya xavfini kamaytiradi, • ish unumdorligini oshiradi, • xodimlar va bemorlar xavfsizligini ta'minlaydi, • sifat menejmenti tizimlarini mustahkamlaydi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Sterilizatsiya sohasi bo'yicha mavjud bo'lgan fizikaviy, kimyoviy, mexanik, biologik, aralash va yangi zamonaviy usullar to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish Sterilizatsiya va uning turlarini. • Gazli sterilizatsiya usullarini • Plazmali va ozonli sterilizatsiya usullarini • Sterilizatorlar va avtoklavlar bilan ishlash davridagi texnika xavfsizligi qoidalari haqida tushunchaga ega bo'lishi
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• tibbiy asboblarni quruq issiqlik shkaftida sterillashni, • tibbiy vositalarning sterillanganlik sifatini tekshirish usullarini, • texnika xavfsizligini,

	tibbiy vositalarning sterilizatsiya sifatini tekshirish usullarini bajara olishi.
O‘quv moduli mazmuni:	Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari. Sterilizatsiya va avtoklavlash tadbirlariga tinglovchilarni amaliy tomondan o‘qitish va o‘rgatish. Mashg‘ulotlar davomida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo‘limlari turlari xaqida tushuncha berish, zamonaviy sterilizatsiya apparatlari bilan tanishtirish, texnika xavfsizligi masalalari bo‘yicha ma’lumotlar berib borish. Asosiy diqqat va e’tiborni sterilizatsiya ishlarini to‘g‘ri olib borish, sterilizatsiyaning sifatli bo‘lishini ta’minlovchi tadbirlar va uni tekshirish uchun zarur indikatorlardan to‘g‘ri foydalanish va ishlatish qoidalariga to‘la amal qilish.
Tavsiya etiladigan adabiyotlar: 1.K.F.Melibayeva,G.F.Ergasheva. "Aseptika, antiseptika va dezinfeksiya" Uslubiy qo‘llanma.Qo‘qon.2025yil. 2.V.N.Turaqulov,F.A.Qurbonov."Xirurgiyada xamshiralik parvarishi"O‘quv qo‘llanma.Navoi nashriyot.2019 yil. 3. G.T Dxritiman,G.T.Iskandarova "Uskunaning hayotiy siklini boshqarish bo‘yicha qo‘llanma-Bug‘li sterilizator(Avtoklav)"Tibbiyot xodimlari uchun uslubiy tavsiyanomalar.Toshkent.2024 yil. 4.G.T Dxritiman,G.T.Iskandarova "Uskunaning hayotiy siklini boshqarish bo‘yicha qo‘llanma-Plazmali sterilizator" Tibbiyot xodimlari uchun uslubiy tavsiyanomalar.Toshkent 2024 yil. 5.Elektron ta’lim resurslari: 1. Zamonaviy sterilizatsiya usullari • Sterilizatsiya usullari. Sterilizatsiya xususiyatlari Muallif: Arzimatova Ra’no Pardaboy qizi (JournalSS) 2. Aseptika va antiseptika asoslari • Tibbiyot xodimlarining aseptika va antiseptik sterilizatsiya usullarini qo‘llanishi Mualliflar: ◦ Sh.Ya. Radjabov ◦ G.R. Kadamova ◦ M.M. Olimova (pedagogs.uz) 3. Mikrobiologiya va sterilizatsiya • Mikrobiologiya va virusologiya • Mualliflar: OTM professor-o‘qituvchilari (NamDU) (www.namdu.uz) 4. Umumiy tibbiyot va dezinfeksiya • Tibbiyotda dezinfeksiya va sterilizatsiya asoslari (book.bsmi.uz) 5. Sterilizatsiya usullari va qo‘llanilishi, Stomatologiyada sterilizatsiya • Sterilizatsiya usullari va ularning qo‘llanilishi • Muallif: Shoda Team (Hujjat24)	

1.5. Modul: Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	10 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta’minlovchi bilim, ko’nikmalar	Jismoniy faollik va sog‘lom turmushda kompetensiyalar Bu sohadagi kompetensiyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: • Sog‘lom turmush qoidalari bo‘yicha bilimga ega bo‘lish • Shaxsiy sog‘liqni baholay olish va nazorat qilish • To‘g‘ri ovqatlanish rejasini tuzish ko‘nikmasi • Jismoniy mashqlarni xavfsiz va samarali bajarish • Sog‘lom hayot tarzini boshqalarga targ‘ib qila olish
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Salomatlik tushunchasi, salomatlik darajasi ko‘rsatkichlarini; • sog‘lom turmush tarzini shakllantirish tamoyillarini; • salomatlikka ta’sir etuvchi omillar: • irsiy, ekologik tibbiy va hayot tarzi va salomatlik mexanizmlarini bilishi, tahlil qila olishni; • atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta’sirini; • salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan standart va algoritmlarni; • to‘g‘ri ovqatlanish prinsiplarini; • kun tartibini to‘g‘ri tashkil etishni; • jismoniy faollik va chiniqishning • salomatlikka ta’sirini; • zararli odatlarning organizmga ta’sirini; • tibbiy ko‘riklarni tashkil etish va aholini • jalb etishni; • sog‘lom turmush tarzini maqsadli guruhlar o‘rtasida shakllantirish va targ‘ib etishni;
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Aholining turli guruhlarida (yoshiga, mehnat turiga, jinsiga qarab) psixoemotsional holatni aniqlashni; • sog‘lom turmush tarzini qo‘llab quvvatlashda maqsadli guruhlarini shakllantirish va ular o‘rtasida suhbatlar olib borishni; • individual salomatlik va uni asrash yo‘llarini; • jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish prinsiplari, zararli odatlarning salomatlikka ta’siri mavzularida aholi o‘rtasida tadbirlar tashkil etishni;

	• maqsadli guruhlar o‘rtasida targ‘ibot ishlarini olib borishni; • inson salomatligini saqlash va tiklashda jismoniy tarbiya mashqlari kompleksini; • jismoniy mashqlarni har xil yoshdagi sog‘lom odamlarda va bemorlarda qo‘llash uslublarini; • Skandinaviya yurish usullarini.
O‘quv moduli mazmuni:	Sog‘lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta’siri, to‘g‘ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to‘g‘ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta’siri, tibbiy ko‘riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.
Tinglovchilarni mustaqil o‘zlashtirishi uchun adabiyotlar ro‘yxati: 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrdagi “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 4887-sonli qarori. 2. VMQ 2025 y. 6-may № 297 “ Sog‘liqni saqlash va ta’lim tashkilotlarida ichimlik suvi hamda sanitariya-gigiyena infratuzilmasini kengaytirishga qaratilgan “ Toza qo‘llar” dasturi. 3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrda “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab – quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4063-sonli qarori. 4. SSV buyrug‘i № 97, 2024 y, 27 mart. “Axoli orasida kasalliklarni erta aniqlash, skrining dasturlarni samarali o‘tkazish, aniqlangan kasalliklar bo‘yicha manzilli sog‘lomlashtirish ishlarini tashkil etish” to‘g‘risida. 5. SSV ning № 175-buyrug‘i, 2025 yil, 20-iyun.” Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 6. Sh. Zokirxo‘jayev, A. Gadoyev, M. Turimbetova “Dietologiya ” 2023 yil 7. A. Gadayev, L. Musadjanova, N. Pirmatova, N. Mo‘minova “Shifobaxsh taomlar ” 2017 yil. 8. Sh. Qurbonov, A. Qurbonov “To‘g‘ri ovqatlanish qoidalar ” 2014 yil 9. Elektron таълим ресурслар: 1. inlibrary.uz – sog‘lom turmush maqolalari 2. globalsciences.uz – ilmiy tadqiqotlar 3. avitsenna.uz – ovqatlanish bo‘yicha tavsiyalar 4. yuz.uz – sog‘lom turmush dasturlari 5. hujjat 24.uz – o‘quv materiallar	

2.1. Modul. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi gematologiya va transfuziologiya sohadagi qaror va buyruqlar, me‘yoriy hujjatlar va islohotlar.

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
O‘quv moduli mazmuni:	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi gematologiya va transfuziologiya sohasidagi qarorlar, buyruqlar, me‘yoriy hujjatlar va islohotlar 1. Prezident qarori – PQ–4592-son 2020-yil 10-fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida gematologiya va transfuziologiya xizmatlarini rivojlantirish hamda onkogematologik va davolash qiyin bo‘lgan kasalliklarga chalingan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori sohaga oid eng muhim hujjatlardan biridir. Ushbu qarorga ko‘ra: • gematologiya va transfuziologiya xizmatlari modernizatsiya qilindi; • donorlik harakatini rivojlantirish belgilandi; • qon komponentlari xavfsizligini oshirish vazifasi qo‘yildi; • Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tashkil etildi; • kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimi kuchaytirildi. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi gematologiya va transfuziologiya sohadagi so‘ngi qaror va buyruqlar. Transfuziologiya va immunogematologiya asoslari, uning rivojlanishida axborot texnologiyalarning o‘rni va qo‘llanilishi. Respublika qon xizmati strukturasi va bajaradigan vazifalari, qon xizmati sohasidagi huquqiy me‘yoriy hujjatlar. Kasbiy kommunikatsiya va shaxslararo muloqot. O‘rta tibbiyot xodimlarlariga lavozim yo‘riqnomalari asosida vazifalarni to‘laqonli bajarishlari va qon xizmatini zamon talablari asosida tashkil etishni o‘rgatish. Davolash profilaktika muassalarida qon komponentlaridan foydalanish bo‘yicha hisob-kitob hujjatlarini yuritilishi. Qon xizmatida faoliyat olib boruvchi o‘rta tibbiyot xodimlarini donorlar bilan ishlashdagi funksional majburiyatlari va vazifalari.
O‘quv moduli	• O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash

Yakunida tinglovchi bilishi lozim:	Vazirligi gematologiya va transfuziologiya sohadagi so'ngi qaror va buyruqlar. • Transfuziologiya va immunogematologiya asoslari, uning rivojlanishida axborot texnologiyalarning o'rni va qo'llanilishi. • Kasbiy kommunikatsiya va shaxslararo muloqot. • Qon xizmatida faoliyat olib boruvchi o'rta tibbiyot xodimlarini donorlar bilan ishlashdagi funksional majburiyatlari va vazifalari.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Respublika qon xizmati strukturasi va bajaradigan vazifalari, qon xizmati sohasidagi huquqiy me'yoriy hujjatlar. • O'rta tibbiyot xodimlarlariga lavozim yo'riqnomalari asosida vazifalarni to'laqonli bajarishlari va qon xizmatini zamon talablari asosida tashkil etishni o'rgatish. • Davolash profilaktika muassalarida qon komponentlaridan foydalanish bo'yicha hisob-kitob hujjatlarini yuritilishi.
Tinglovchida shakllanishi kerak bo'lgan kompetensiyalar:	Gematologiya va transfuziologiya sohasida faoliyat yurituvchi hamshiralar va feldsherlar quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak: • donorlarni ro'yxatga olish va tayyorlash; • qon olish texnikasini mukammal bajarish; • aseptika va antiseptika qoidalariga rioya qilish; • qon komponentlarini markirovka qilish va saqlash; • donor va bemor holatini monitoring qilish; • favqulodda posttransfuzion reaksiyalarda birinchi yordam ko'rsatish; • tibbiy hujjatlarni yuritish; • donorlar bilan psixologik va etik muloqot olib borish.

2.2. Modul. Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari bo'lgan bemorlarni zamonaviy laborator-instrumental tekshirish usullari.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Qonning miqdori va tarkibi. Qonning fizik va kimyoviy xossalari. Qonning asosiy vazifalari. Qonning antigen va himoya funksiyasi.

	Eritrotsitlarning asosiy funksiyalari. Qon plazmasining tarkibi. Leykotsitlar funksiyalari. Leykotsitar formula. Leykopoez. Qon yaratish a'zolari kasalliklari bo'lgan bemorlarni tekshirishga tayyorlash va parvarish qilish xususiyatlari. Gematologik tekshirish usullari. Qon va qon yaratish a'zolari kasallik-lari bo'lgan bemorlarni zamonaviy instrumental va laborator tekshirish usullari. Qon olish va unga ishlov berish, eritrotsitlarni tekshirish, normal periferiya qonini tekshirish, turli anemiyalarda periferiya qonini tekshirish.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Qonning miqdori va tarkibi. Qonning fizik va kimyoviy xossalari. • Qonning asosiy vazifalari. • Qonning antigen va himoya funksiyasi. • Eritrotsitlarning asosiy funksiyalari. • Qon plazmasining tarkibi. • Leykotsitlar funksiyalari. Leykotsitar formula. Leykopoez.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Qon yaratish a'zolari kasalliklari bo'lgan bemorlarni tekshirishga tayyorlash va parvarish qilish xususiyatlari. • Gematologik tekshirish usullari. • Qon va qon yaratish a'zolari kasallik-lari bo'lgan bemorlarni zamonaviy instrumental va laborator tekshirish usullari. • Qon olish va unga ishlov berish, eritrotsitlarni tekshirish, normal periferiya qonini tekshirish, turli anemiyalarda periferiya qonini tekshirish.

Tinglovchida shakllanishi kerak bo‘lgan kompetensiyalar:	Mazkur mavzu bo‘yicha tinglovchilarda qon va qon yaratish a‘zolari kasalliklarini zamonaviy diagnostika usullari orqali aniqlash, bemorlarni tekshiruvga tayyorlash, biomaterial bilan ishlash va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish bo‘yicha zarur kasbiy kompetensiyalar shakllanadi. • gematologik kasalliklarni aniqlashda laborator va instrumental tekshiruvlarning ahamiyatini tushunish; • tekshiruv natijalarini tahlil qilishda ishtirok etish. • qon olish texnikalarini xavfsiz va to‘g‘ri bajarish; • tibbiy jihozlar bilan ishlash. • bemor bilan to‘g‘ri muloqot qilish; • bemorni tekshiruvga psixologik tayyorlash; • tibbiy etikaga rioya qilish. • laborator natijalarni elektron tizimda qayd etish; • zamonaviy diagnostik texnologiyalardan foydalanish. • infeksiya nazorat qoidalariga amal qilish; • biologik xavfsizlikni ta‘minlash; • chiqindilarni utilizatsiya qilish tartibiga rioya etish.
---	---

2.3. Modul. O‘rta tibbiyot xodimlarining gematologiya bo‘limida standart hamshiralik ish jarayoni. Qon guruhlari, rezus faktorni aniqlash usullari va texnikasi.

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
O‘quv moduli mazmuni:	O‘rta tibbiyot xodimlarining gematologiya bo‘limida standart hamshiralik ish jarayoni. Qon guruhlari va AVO tizimi to‘g‘risida ma’lumot, ularning tasnifi, antigen strukturasi va ularni qon guruhlaridagi ahamiyati. Qon guruhlarini aniqlash usullari. Qon guruhining rezus omil. Rezus faktorni va qonning rezus mutanosibligini aniqlash usullari. Qon quyish texnikasi va usullari.
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• O‘rta tibbiyot xodimlarining gematologiya bo‘limida standart hamshiralik ish jarayoni. • Qon guruhlari va AVO tizimi to‘g‘risida ma’lumot, ularning tasnifi, antigen strukturasi va ularni qon

	guruhlaridagi ahamiyati.
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Donorlarga samarali davo muolajalarini o‘tkazish va hamshiralik parvarishi. • Qon guruhlarini aniqlash usullari. Qon guruhining rezus omil. Rezus faktorni va qonning rezus mutanosibligini aniqlash usullari • Qon quyish texnikasi va usullari.
Tinglovchida shakllanishi kerak bo‘lgan kompetensiyalar:	Gematologiya bo‘limida o‘rta tibbiyot xodimlari qon guruhlarini va Rh faktorini aniqlash jarayonlarini bilishi, standart hamshiralik parvarishini to‘g‘ri tashkil etishi hamda transfuzion xavfsizlikni ta‘minlashi muhim kasbiy kompetensiya hisoblanadi. • diagnostik kompetensiya – qon guruhini aniqlashda ishtirok etish; • texnik kompetensiya – laborator usullarni to‘g‘ri bajarish; • xavfsizlik kompetensiyasi – transfuzion xavfsizlikni ta‘minlash; • kommunikativ kompetensiya – bemor bilan to‘g‘ri muloqot; • mas‘uliyat kompetensiyasi – hujjatlar va natijalar aniqligi.

2.4. Modul. Qon xizmatida faoliyat olib boruvchi o‘rta tibbiyot xodimlarini donorlar bilan ishlashdagi funksional majburiyatlari va vazifalar.

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	12 kredit
O‘quv moduli mazmuni:	Donorlarni tanlab olish. Qon va plazma donatsiyasi uchun talablar. Donorlarni qabul qilish va hisobga olish, donorlarni ro‘yxatga olish bo‘yicha birlamchi tibbiy hujjatlarni yuritish, aktiv donorlar, rezerv donorlar va qarindosh donorlar hisobini olib borish. Donorlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni elektron bazaga kiritish va uni yuritish tartibi. Donorlarga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha tadbirlar. Donorlarga samarali davo muolajalarini o‘tkazish va hamshiralik parvarishi.
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Donorlik va qon xizmatining asosiy maqsad va vazifalarini; • Donorlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish va hujjatlashtirish tartibini;

	• Donorlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish qoidalarini; • Donorlikka qarshi ko‘rsatmalarni (mutlaq va vaqtinchalik); • Donordan qon va uning komponentlarini olish tartibini; • Qon topshirishdan oldin va keyin donor holatini ko‘zatlarni; • Aseptika va antiseptika qoidalarini; • Qon olishda ishlatiladigan tibbiy jihoz va sarflash materiallaridan foydalanishni; • Donorlarda ko‘zatlarni mumkin bo‘lgan nojo‘ya holatlar va birinchi yordam ko‘rsatishni; • Qon va uning komponentlarini saqlash hamda tashish qoidalarini; • Tibbiy etika va deontologiya asoslarini; • Donorlar bilan muloqot madaniyati va psixologik yondashuvni; • Sanitariya-gigiyena va epidemiologik xavfsizlik talablarini; • Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar va qon xizmatiga oid buyruqlarni.
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Donorlarni ro‘yxatga olish va anketa to‘ldirish; • Arterial bosim, puls, tana harorati va gemoglobin miqdorini aniqlash; • Donordan qon olish jarayonida hamshiralik manipulyatsiyalarini bajarish; • Sterillik va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish; • Donorda yuzaga kelgan hushdan ketish, bosh aylanishi kabi holatlarda birinchi yordam ko‘rsatish; • Olingan qon namunalarini markirovka qilish va laboratoriyaga yuborish; • Tibbiy hujjatlarni yuritish; • Donorlarga tavsiya va tushuntirishlar berish. •
Tinglovchida shakllanishi kerak bo‘lgan kompetensiyalar:	• Professional mas‘uliyat; • Tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish; • Jamoa bilan ishlash ko‘nikmasi; • Donorlar bilan samarali kommunikatsiya; • Infeksion xavfsizlikka qat‘iy rioya qilish.

2.5. Modul. Qon va uning tarkibiy qismlarini quyish. Qon preparatlarini tayyorlash prinsiplari.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	18 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Gemotransfuziyaning organizimga tas'ri. Qon va uning komponentlarini tayyorlash jarayoni, qonservalangan qon va uning komponentlariga qo'yiladigan talablar. Qon va uning tarkibiy qismlarini quyishning afzalliklari va operatsiyasiga roziligi ruxsatnomasi olish namunasini to'ldirish. Gemotransfuziyaga mutloq va nisbiy ko'rsatmalar va qo'llanilishi taqiqlangan holatlar. Gemotransfuziyani standart algoritim bo'yicha o'tkazish. Donorlik qonini sentrifugalash va birlamchi fraksiyalash. Eritrotsitar massa, yangi muzlatilgan plazma, yuvilgan eritrotsitlar, tromboqonsentrat va kriopretsipitatni tayyorlash prinsiplari. Donorlik qonini qonservalash usullari. Qon plazmasi preparatlarini tayyorlash. Qon komponentlarini davolash profilaktika muassasalariga tarqatishda, transportirovka qilishda, saqlashda sovuqlik zanjiri saqlanishiga qo'yilgan talablar. Qon komponentlari sterilligini bakteriologik tekshirish va qon aprobatsiyasi. Qon va uning komponentlarini pasportizatsiya qilish. Qon o'rnini bosuvchi suyuqliklarni yuborish texnikasi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Gemotransfuziyaning organizimga tas'iri. • Gemotransfuziyaga mutloq va nisbiy ko'rsatmalar va qo'llanilishi taqiqlangan holatlar. • Donorlik qonini sentrifugalash va birlamchi fraksiyalash.. • Qon komponentlari sterilligini bakteriologik tekshirish va qon aprobatsiyasi. Qon o'rnini bosuvchi suyuqliklarni yuborish texnikasi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Qon va uning komponentlarini tayyorlash jarayoni, qonservalangan qon va uning komponentlariga qo'yiladigan talablar. • Qon va uning tarkibiy qismlarini quyishning afzalliklari va operatsiyasiga roziligi ruxsatnomasi olish namunasini to'ldirish. • Gemotransfuziyani standart algoritim bo'yicha o'tkazish. • Eritrotsitar massa, yangi muzlatilgan plazma,

	yuvilgan eritrotsitlar, tromboqonsentrat va kriopretsipitatni tayyorlash prinsiplari. • Donorlik qonini qonservalash usullari. • Qon plazmasi preparatlarini tayyorlash. • Qon komponentlarini davolash profilaktika muassasalariga tarqatishda, transportirovka qilishda, saqlashda sovuqlik zanjiri saqlanishiga qo'yilgan talablar • Qon va uning komponentlarini pasportizatsiya qilish.
Tinglovchida shakllanishi kerak bo'lgan kompetensiyalar	• Diagnostik kompetensiya — moslikni baholashda ishtirok etish • Amaliy kompetensiya — transfuziya jarayonini bajarish • Xavfsizlik kompetensiyasi — infeksiyon nazorat • Kommunikativ kompetensiya — bemor bilan to'g'ri muloqot • Mas'uliyat kompetensiyasi — jarayonni nazorat qilish va hujjatlashtirish

2.6. Modul. Postgemotransfuzion reaksiyalar va asoratlarini oldini olish, hamshiralik parvarishini olib borish.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	18 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Qon xizmatini zamon talablari asosida tashkil etish. Postgemotransfuzion reaksiyalar va ularning asoratlarida o'rta tibbiyot xodimlarining lavozim yo'riqnomalari asosida vazifalarni to'laqonli bajarishlari. Gemotransfuzion reaksiyalar. Sifatsiz qon quyilishi natijasida paydo bo'ladigan asoratlar. Tromboemboliya. Gemotransfuzion asoratlarda bemorlarda hamshiralik parvarishini olib borish. Mexanik asoratlar va havo emboliyasi va trombozlarda hamshiralik parvarishini olib borish. Massiv transfuziya sindromi. Bakterial shok, gemolitik reaksiyalar, o'tkir gemoliz. anafilaktik shokda shoshilinch yordam. Posttransfuzion trombositopeniya, sabablari, belgilari. Transfuziyada yurak qon-tomir tizimi, jigar va buyraklarda ko'zatiladigan asoratlar va ularda yordam ko'rsatish. Gemotransfuziya asoratida hamshiralik parvarishi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi	• Qon xizmatini zamon talablari asosida tashkil etish • Gemotransfuzion reaksiyalar. • Sifatsiz qon quyilishi natijasida paydo bo'ladigan

bilishi lozim:	asoratlari. • Tromboemboliya. • Posttransfuzion trombotsitopeniya, sabablari, belgilari.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Postgemotransfuzion reaksiyalar va ularning asoratlari o'rta tibbiyot xodimlarining lavozim yo'riqnomalari asosida vazifalarni to'laqonli bajarishlari. • Gemotransfuzion asoratlarda bemorlarda hamshiralik parvarishini olib borish. • Mexanik asoratlari va havo emboliyasi va tronbozlarda hamshiralik parvarishini olib borish. • Massiv transfuziya sindromi. Bakterial shok, gemolitik reaksiyalar, o'tkir gemoliz, anafilaktik shokda shoshilinch yordam. • Gemotransfuziya asoratida hamshiralik parvarishi.
Tinglovchida shakllanishi kerak bo'lgan kompetensiyalar	• Diagnostik kompetensiya — moslikni baholashda ishtirok etish • Amaliy kompetensiya — transfuziya jarayonini bajarish • Xavfsizlik kompetensiyasi — infeksiya nazorat • Kommunikativ kompetensiya — bemor bilan to'g'ri muloqot • Mas'uliyat kompetensiyasi — jarayonni nazorat qilish va hujjatlashtirish

2.7. Modul. Qon yaratish tizimi o'sma kasalliklari. Gematologiyada klinik sindromlar va bemorlarga hamshiralik parvarishi.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	12 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Qon yaratish tizimi o'sma kasalliklari leykoz, limfoid leykoz, miyelom kasalliklari sabablari, klinik belgilari, asoratlari, bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari. Anemiya. Leykoz. Gemorragik diatez kasalliklari haqida tushuncha, turlari, kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, davosi, profilaktikasi va bemorlarda hamshiralik parvarishini olib borish. O'tkir nur kasalligi. Kechiktirib bo'lmaydigan holatlar: turli etiologiyali qon ketishlarda shoshilinch yordam ko'rsatish va hamshiralik parvarishi.

O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Qon yaratish tizimi o'sma kasalliklari leykoz, limfoleykoz, miyelom kasalliklari sabablari, klinik belgilari, asoratlari, bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari. • Anemiya. Leykoz. Gemorragik diatez kasalliklari haqida tushuncha, turlari, kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, davosi, profilaktikasi va bemorlarda hamshiralik parvarishini olib borish.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Kechiktirib bo'lmaydigan holatlar: turli etiologiyali qon ketishlarda shoshilinch yordam ko'rsatish va hamshiralik parvarishi.
Tinglovchida shakllanishi kerak bo'lgan kompetensiyalar	• Diagnostik kompetensiya — moslikni baholashda ishtirok etish • Amaliy kompetensiya — transfuziya jarayonini bajarish • Xavfsizlik kompetensiyasi — infeksiyon nazorat • Kommunikativ kompetensiya — bemor bilan to'g'ri muloqot • Mas'uliyat kompetensiyasi — jarayonni nazorat qilish va hujjatlashtirish

2.8. Modul. Gemotransmissiv infeksiyalar. Qon xizmati muassasalarida kasalxona ichi infeksiyasini tarqalishini oldini olishda hamshiralik parvarishini olib borish.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	14 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Organizmida kasallik chaqiruvchi infeksiyon va virusli kasalliklari (OIV, virusli gepatit V, virusli gepatit S) bo'lgan bemorlar bilan ishlashda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish. Gemotransmissiv infeksiyalarni yuqishini oldini olish maqsadida biologik xavf omillarini aniqlash, donorlik qoni va uning komponentlarini tayyorlashda, ishlov berish jarayonida aseptika va antiseptika qoidalariga rioya qilish. Qon xizmati muassasalarida kasalxona ichi infeksiyasini tarqalishini oldini olish. Avariya holatlari va ularni oldini olish. Binoning, asbob-uskunalar va jihozlarning sanitar holatiga qo'yilgan talablar asosida ish olib borish. Tibbiy chiqindilar va ularni utilizatsiya qilishda ehtiyotlik

	choralarini ko‘rish yo‘llarini o‘rganish, yuqumli kasalliklarini tarqalishini oldini olish.
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Organizmda kasallik chaqiruvchi infeksiyon va virusli kasalliklari (OIV, virusli gepatit V, virusli gepatit S) bo‘lgan bemorlar bilan ishlashda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish. • Gemotransmissiv infeksiyalarni yuqishini oldini olish maqsadida biologik xavf omillarini aniqlash, donorlik qoni va uning komponentlarini tayyorlashda, ishlov berish jarayonida aseptika va antiseptika qoidalariga rioya qilish. • Qon xizmati muassasalarida kasalxona ichi infeksiyasini tarqalishini oldini olish.
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Avariya holatlari va ularni oldini olish. • Binoning, asbob-uskunalar va jihozlarning sanitar holatiga qo‘yilgan talablar asosida ish olib borish. • Tibbiy chiqindilar va ularni utilizatsiya qilishda ehtiyotlik choralarini ko‘rish yo‘llarini o‘rganish, yuqumli kasalliklarini tarqalishini oldini olish.
Tinglovchida shakllanishi kerak bo‘lgan kompetensiyalar	• Diagnostik kompetensiya — moslikni baholashda ishtirok etish • Amaliy kompetensiya — transfuziya jarayonini bajarish • Xavfsizlik kompetensiyasi — infeksiyon nazorat • Kommunikativ kompetensiya — bemor bilan to‘g‘ri muloqot • Mas’uliyat kompetensiyasi — jarayonni nazorat qilish va hujjatlashtirish

2.9. Modul. Qon tarkibiy qisimlarini quyishda immunoserologik tekshiruvlar.

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
O‘quv moduli mazmuni:	Immunologik laboratoriyaning ish tartibi. Immunologiya usullari. Mikroskopik va serologik tekshiruvlar uchun preparatlar tayyorlash. Bakteriologik probirkaga ozuqa muhiti yuzasidan biologik materialni olish. Antigen va antitela qo‘llab immun reaksiyalar o‘tkazish. Immunobiologik preparatlar
O‘quv moduli	• Immunologik laboratoriyaning ish tartibi.

yakunida tinglovchi bilishi lozim:	Immunologiya usullari. • Bakteriologik probirkaga ozuqa muhiti yuzasidan biologik materialni olish. • Immunobiologik preparatlar
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Mikroskopik va serologik tekshiruvlar uchun preparatlar tayyorlash. • Antigen va antitela qo'llab immun reaksiyalar o'tkazish.
Tinglovchida shakllanishi kerak bo'lgan kompetensiyalar	• Diagnostik kompetensiya — moslikni baholashda ishtirok etish • Amaliy kompetensiya — transfuziya jarayonini bajarish • Xavfsizlik kompetensiyasi — infeksiyon nazorat • Kommunikativ kompetensiya — bemor bilan to'g'ri muloqot • Mas'uliyat kompetensiyasi — jarayonni nazorat qilish va hujjatlashtirish

2.10. Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha. Favqulodda vaziyatlar, ularning sabablari, turlari. Tibbiy saralash va triaj asoslari. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari. Qon ketishni to'xtatish usullari. Yengil va og'ir kuyishlarda tibbiy yordam ko'rsatish. Elektr jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar, uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish. Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma'lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko'rsatish. Shok holatlarida yordam ko'rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko'rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi.
O'quv moduli	• Favqulodda vaziyatlar va halokatlarning asosiy



yakunida tinglovchi bilishi lozim:	turlarini; • favqulodda vaziyatlar tasnifi, kelib chiqish sabablari, manbalarini; • tibbiy evakuatsiya bosqichlarini; • jarohatlanganlarni tibbiy saralash tartibini; • favqulotda vaziyatlarda oʻrta tibbiyot xodimining vazifalarini; • evakuatsiya bosqichlarida tibbiy yordam turlarini; • ommaviy talofat oʻchogʻida birinchi yordam koʻrsatishni; • oʻtkir yurak qon – tomir yetishmovchiligida yurak-oʻpka reanimatsiyasini.
Oʻquv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Favqulodda vaziyatlarda shikastlanish turiga qarab jabrlanganlarni tibbiy saralashni; • texnogen, tabiiy, ekologik tisdagi favqulotda vaziyatlarda birinchi yordam koʻrsatishni; • jabrlanganlarni evakuatsiya qilishni; • transport avariylarida yordam koʻrsatishni; • jarohatlarda, suyak sinishida va Krash sindromida birinchi yordam koʻrsatishni; • oʻtkir qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam koʻrsatishni; • elektr toki bilan shikastlanishda birinchi yordam koʻrsatishni; • oʻtkir zaharlanishlarda birinchi yordam koʻrsatishni; • sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam koʻrsatishni; • choʻkishda birinchi yordam koʻrsatishni; • boʻgʻilishda birinchi yordam koʻrsatishni; • hasharotlar chaqishi va hayvonlar tishlaganda tez tibbiy yordam koʻrsatishni; • oʻtkir yurak qon – tomir yetishmovchiligida yurak-oʻpka reanimatsiyasini asosiy tadbirlarning “SAV” ketma-ketligini bajarishni.
Tavsiya etiladigan adabiyotlar:	1.D.Turaqulov,L.X.Musajonova.”Shoshilinch tez tibbiy yordam koʻrsatishda xamshiralik ishi”Oʻquv qoʻllanma.A.Navoi nashriyot.2019 yil. 2. Y.Allayorov Y.Tojiboev “Favqulotda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.”2017 y.Toshkent. 3.Elektron taʼlim resurslari:

	1. Free online First Aid, CPR & AED kurslari - FirstAidForFree.com — asosiy birinchi yordam, CPR (CPR), AED (avtomatik tashqi defibrillyator) va boshqa ko‘plab mavzularni o‘z ichiga olgan bepul onlayn kurslar. - American Red Cross (Amerika Qizil Xoch) tomonidan taklif etilgan onlayn birinchi yordam kurslari. Interaktiv modul orqali CPR, yaralanishlarni boshqarish va boshqa birinchi yordam ko‘nikmalari. 2. CPR, AED va First Aid kursi — Alison Free Course: CPR, AED and First Aid Alison platformasidagi bepul kurs. Bu kursda CPR, AED ishlatish va favqulodda vaziyatlarda tez yordam asoslarini mustaqil o‘rganish mumkin.
--	---

3.2.2 Simulyatsion kurs (tibbiy trening) mazmuni

№	Bajariladi gan ishlar mazmuni	Eskizlar, chizmalar rasmlar,	Kerakli bo‘lgan jixozlar.	Bajarilish tartibi
1	Qo‘llarni yuvish	HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION   	suyuq sovun, bir martalik qog‘oz salfetka.	Ho‘llash va sovunlash: Qo‘llarni toza suv bilan ho‘llang va yetarli miqdorda sovun surting. Kaftlarni ishqalash: Kaftlarni bir-biriga qaratib, aylanma harakatlar bilan ishqalang. Barmoqlar orasini tozalash: O‘ng kaftni chap qo‘l orqasiga qo‘yib, barmoqlarni bir-birining orasiga kirgazing va ishqalang. So‘ngra qo‘llarni almashtiring. Barmoqlarni qulflash: Barmoqlarni bir-biriga ilashtirib (qulflab), barmoqlar orqa yuzasini qarama-

				qarshi kaft bilan ishqalang. Bosh barmoqlarni yuvish: Chap qo'l bosh barmog'ini o'ng kaft bilan qisib ushlab, aylanma harakatlar bilan tozalang. Keyin o'ng bosh barmoqni ham shunday yuving. Tirnoqlar va barmoq uchlari: O'ng qo'l barmoq uchlarini chap kaftga qo'yib, aylanma harakatlar bilan ishqalang. Bu tirnoq ostidagi mikroblarni ketkazadi. Keyin qo'llarni almashtiring.
2.	Radial pulsni aniqlash. Bemorni qulay xolatda o'tkazish yoki yotqizish.	 	Suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka. Sekundomer, harorat varaqasi, ruchka. Qizil ruchka.	Radial pulsni aniqlash. 1.Qo'llar yuviladi va quritiladi. 2.Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi 3.Bemor qulay xolatda o'tkaziladi yoki yotqiziladi. 4.Bemorning qo'li bo'sh egilgan holatda bo'lishi kerak. 5.Radial pulsni aniqlashda tekshiruvchi bilakning ichki yuzasi, 1/3 pastki qismi, 1 – barmoq asosi bo'ylab bilak arteriyasi tomini shunday ushlashi kerakki II, III, IV barmoqlari tomir ustida bo'lishi kerak. 6.Pulsni tekshirayotgan vaqtda tekshiruvchi IV



barmog'i bemor ning I - barmog'i ro'parasida bo'lishi kerak. 7. Pulsasiya qilayotgan arteriyani uchchala barmoq bilan paypaslab, asta bilak suyagining ichki tomoniga bosiladi 8. Pulsni aniqlayotganda uni maromiga, to'liqligiga

ESLATMA: ahamiyat beriladi. 9. Bilak arteriyasida pulsni sanash mumkin bo'lmaganda uyqu va chakka sanaladi. 10. sohalarida Natijasi harorat varaqasiga qizil ruchka belgilanadi.

ESLATMA: 1. Puls urishini bun dan tashqari quyi dagi sohalarda aniqlash mumkin:

a) Karotid puls — uyqu arteriyasida, ya'ni kekirdakning yon tomonidagi anatomik chuqurchada aniqlanib, kattalarda o'pka — yurak reani matsiyasini o'tkaz ganda foydalaniladi.

b) Braxial puls - elka arteriyasida, ya'ni tirsak chuqurchasi markazining kichik barmoq aniqlanadi, tomonida asosan

				arterial qon bosimini o'lchashda foydalani ladi. v) Femoral puls – son arteriyasida, ya'ni tos suyagining yuqori oldingi qismi va chov birlashmasi o'rtasida aniqlanadi, asosan oyoqlarning qon bilan ta'minlanishi yoki o'pka – yurak reanimasiyasi o'tkazilganda ko'krak qafasining kompressiyalarini baholashda foydalaniladi. g) Pedal puls – oyoq kaftining dorzal yuzasida va to'piqning ichki (medial) o'simtasini orqa pastroq qismida aniqlanadi, asosan oyoqlarning qon bilan ta'minlanishini baholashda foydalaniladi d) Apikal puls – yurak cho'qqisi turtkisida, ya'ni chap o'mrov o'rta chizig'i bo'ylab, 4 – 5 qovurg'alararo sohada stetoskop yordamida eshitiladi. e) Apikal va radial pulsni aniqlash orqali puls defisitini (tanqisligi) aniqlash:
3	Arterial bosim (a.b.)ni		Tonometr, fonendoskop	Arterial bosim (a.b.)ni o'lchash. 1. Qo'llar yuviladi va quritiladi.

o'lchash.



2. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi
3. Arterial bosimni o'lchash uchun bemor qulay o'tkaziladi yoki yotqiziladi.

Bemorning o'ng yoki chap bilagini yelkasigacha yalang'ochlanadi.

5. Bemor qo'li krovat ga yoki stulga kafti bilan yuqoriga qaratib qo'yiladi

6. Tonometr vintelini burab manjetini havo si chiqariladi.

7. Bemorni tirsagidan 2-3 sm yuqoriga manjetni 2 barmoq sig'adigan qilib o'rab olinadi.

8. Bemorning tirsak bo'g'imida yelka arte riyasi tomir urishini 2,3,4 barmoqlar yorda mida topiladi.


9. Tomir urgan joyga fonendoskop membra nasini qo'yiladi, eshituv nayi quloqqa ulanadi.

10. Vintelni berkitib rezina ballon yordamida manjetkaga havo yuboriladi.

11. Vintelni ochib, havo asta-sekin chiqariladi.

12. Havo chiqish vaqtida fonendoskopda tomir urishi eshutiladi.

Bu sistolik

		  	bosim ko'rsatgichidir. 13. Havo chiqishi davomida tovushlar eshitilmay qoladi. Bu diastolik bosim ko'rsatgichini bildiradi. 14. Tovushlarning eshitilgan va eshitilmagan joylardagi natijani monometrdan yozib olinadi. 15. Vintelni to'liq ochib, manjetkani ichidagi xavo to'liq chiqariladi. 16. Manjetka bemor bilagidan olinadi. 17. Natija xarorat varaqasiga belgilanadi. ESLATMA: Normada sistolik bosim kattalarda 100-130 mm.simob ustuniga, diastolik bosim 60-90mm. simob ustuniga teng bo'ladi.
--	--	--	---

4	Nafas olish sonini sanash	HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION  VectorStock VectorStock.com/6372085    	Sekundomer-1 ta, lotok – 1ta, gemodi namika varaqlari-1 ta suyuq sovun -1 ml, qog‘oz sochiq-20sm, steril qo‘lqop -1 juft, 70% li etil spirti – 5 ml, paxta sharcha-10 gr, 0,5% gipoxlorid natriy eritmasi -500 ml	1. Qo‘llar yuviladi va quritiladi. 2. Bemor bilan ishonchli munosabat o‘rnatiladi. 3. Muolaja mohiyati va ketma-ketligi tushuntiriladi. Bemordan muolajaga roziligi olinadi. 5. Kerakli jihozlar tayyorlanadi. 6. Hamshira qo‘llari yuviladi va quritiladi. 7. Nafasni sanash uchun bemor karovatga o‘tirgan yoki yotgan bo‘lishi kerak. Bemor oldida joylashib o‘tiriladi va bemorni chalg‘itish uchun uning qo‘lini pulsni aniqlash maqsadida ushlagandek ushlanadi. 9. Hamshira qo‘lini bemorning bilagidan ushlab, agar ko‘krak tipidagi nafasni aniqlash kerak bo‘lsa bemorning ko‘krak sohasiga, qorin tipini aniqlashda epigastral sohasiga pulsni aniqlash maqsadida qo‘ygandek qo‘yadi. 10. Nafas olish sekundomerdan foydalangan holda sanaladi. 11. Nafas olish sanalganda uning maromini, sonini,
---	---------------------------	---	--	---

				chuqurligini va tipini baholanadi. 12.Nafas harakatlari 1 daqiqa davomida sanaladi.
5	Hushdan ketganda birinchi yordam ko'rsatish.	HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION   	Yostiq yoki katlanadigan adyol ,Nam sochiq yoki salqin suv, Nashatir spirti (ammiak) ,Paxta ,Bir martalik qo'loqlar ,Qaychi yoki tugmani ochish uchun vosita ,O'ralgan qulay mato (matrascha yoki polietilen) , Zaruratda yonboshlatis h uchun orqa yostiq (kichik) , Og'ir holatlar uchun telefon yoki aloqa vositasi	1. Avvalo xavfsizlikni ta'minlang: O'zingiz va jabrlanuvchi uchun xavfsiz joyda ekaningizga ishonch hosil qiling (masalan, yo'l o'rtasida bo'lsa, uni chetga olib chiqing 2.BIRINCHI YORDAM QADAMLARI: Jabrlanuvchini tekshiring Odamga ohang bilan murojaat qiling : "Yaxshimisiz?", "Meni eshityapsizmi?" Javob bermasa, yengil silkitib ko'ring. 3. Burun tagiga paxtaga shimdirilgan nashatir spirti tutqazish mumkin – bu odamning o'ziga kelishiga yordam beradi. Ammo nashatirli paxtani buro'nga tiqmaslik, uni ichkariga quyib yubormaslik va hushsiz holatda odamni ichimlik bilan sug'ormaslik kerak –



Побрызгать лицо холодной водой,
дать понюхать ватку с нашатырным спиртом

1 Приподнимает ноги для улучшения притока крови к сердцу. Восстанавливает силы и готовится сменить уставшего участника. Координирует действия.

2 Проводит непрямой массаж сердца. Отдает команду «Вдох!» после каждого пятого надавливания (в момент вдоха следует сделать паузу на 3-4 секунды). Контролирует эффективность вдоха ИВЛ.



3 Проводит вдох ИВЛ. Контролирует реакцию дыхания и пульс на сонной артерии.



bu xatoliklar odamga zarar yetkazishi mumkin.

4. Nafas olishni va yurak urishini tekshiring.

Nafas chiqishini og'iz yoki burundan eshiting yuzingiz bilan sezishga harakat qiling.

5. Ko'krakning ko'tarilishini ko'zating. Nafas va urishni aniqlash 10 soniyadan oshmasligi kerak.

6. Agar nafas olmasa yoki yurak urishi to'xtagan bo'lsa: Zudlik bilan tez yordam chaqiring (103). Yurak urishini sun'iy yo'l bilan tiklash (KPR) boshlang: Ko'krakning markaziga ikki qo'lni qo'yib, har bir bosish 5–6 sm chuqurlikda va daqiqasiga ~100–120 marta bo'lishi kerak.

7. Agar nafas olayotgan bo'lsa, ammo hushsiz bo'lsa: Uni yonbosh holatga o'tkazing (stabil yon holat): Nafas yo'llari ochiq bo'lishi uchun tilni orqaga tushib qolishining oldini oladi.

Nafasini va holatini

				doimiy ko'zatib boring. Kiyimlarini bo'shating Yoqa, belbog', sutyen yoki boshqa qisuvchi kiyimlarni yeching.
6	Antropometriya o'tkazish	Ulchov tasmasi 	santimetrli o'lchov tasmasi; ruchka; suyuq sovun	Mijozdan issiq yoki qalin kiyimlarini yechishini iltimos qiling; O'lchashni yupqa kiyim ustidan amalga oshiring; Mijozdan o'lchash tasmagini gavda atrofidan (pastki qovurg'a va to's suyagining yuqori nuqtasi orasida joylashgan markaziy nuqtada) o'tkazishni iltimos qiling; O'lchash tasmasi bir xil sathda turganligiga ishonch hosil qiling; Mijozdan gavdasining og'irligini bir tekisda taqsimlagan holda, oyoqlarini birga qo'yishini iltimos qiling; Qo'llarini bo'shashgan holatda tutishi; Me'yoriy nafas olib so'ngra nafas chiqarishini iltimos qiling; Bel aylanasi uzunligini o'lchang; O'lchash tasmasi qattiq siqmagun holda, teriga

				yopishib turishi lozim (rasmlarga qarang). Mijozdan santimetrli tasmani qaytarab oling; Qo'llarni sovun bilan yuving. Me'yorida bel aylanasi erkaklarda 100 sm , ayollarda 90 sm bo'lishi kerak
7	Tana haroratini o'lchash.		tibbiy termometr, sochiq, harorat daftari, zararsizlantiruvchi eritma solingan idish (1% li xloramin eritmasi)	Qo'l yuviladi va quritiladi. Bemorga muolaja haqida ma'lumot beriladi. Bemor qulay vaziyatda yotqiziladi. Termometr olinadi va simob ustuni silkitib tushiriladi. Termometr qo'yiladigan soha ko'zdan kechiriladi va sochiq bilan quruq qilib artiladi. Termometr teri burmasiga qo'yiladi. Bunda termometrda simob rezervuari badanga tegib turishi kerak. 10 daqiqadan so'ng termometr olinadi. Termometrda ko'rsatgich aniqlanadi. Termometr ko'rsatgichi harorat daftariga qayt qilinadi. Termometr simob ustuni pastga tushguncha silkitiladi.

				Termometr zararsizlantiriladi. Harorat varaqasiga qayd qilinadi. Termometrni zararsizlantirish: termometr zararsizlantiruvchi eritmalaridan biriga solib qo'yiladi (2% li xloramin eritmasiga 30 daqiqaga, 3% perikis vodorodli eritmasiga 80 daqiqaga, 0,5% li dizoksan eritmasiga 20 daqiqaga) oqar suvda chayiladi va quruq qilib artiladi. Termometr quruq joyda, tagiga paxta solingan idishda saqlanadi.
8	Kollaps , Shokda birinchi yordam.	HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION  VectorStock VectorStock.com/6372085  	Yostiq yoki katlanadigan adyol ,Nam sochiq yoki salqin suv, Nashatir spirti (ammiak) ,Paxta , bir martalik qo'ldoplar ,Qaychi yoki tugmani ochish uchun vosita ,O'ralgan qulay mato (matrascha yoki polietilen) , Zaruratda yonboshlatis h	1. Holatni baholash va yordam chaqirish Jabrlanuvchining holatini tezda baholang: hushida yoki yo'qmi, nafas olyaptimi. Tez yordam 103 chaqiring. 2. Jabrlanuvchini yotqizing, iloji bo'lsa beliga orqa bilan, tekis joyga. Oyoqlarini biroz ko'tarib qo'ying – bu miya va yurakka qon oqimini yaxshilaydi. 3. Agar voqea yopiq joyda bo'lsa, derazani oching, shamollatish

		  	uchun orqa yostiq (kichik) , Og‘ir holatlar uchun telefon yoki aloqa vositasi	yarating. Kiyimlarning yoqasini, belbog‘ini, tugmalarini yeching, siqib turgan qismlarni bo‘shating. 4. Boshni yon tomon ga buring, bu tilning orqaga tushib nafas yo‘llarini to‘sib qo‘y masligi uchun zarur. Agar qayt qilish ehtimoli bo‘lsa, yonbosh yotqizing. 5. Terisi sovuq, oqarib ketgan bo‘lsa – tanani iliqlashtirish choralarini ko‘ring. Sovuq ter chiqishi – bu qon aylanishining buzilganidan darak beradi. Nashatir spirtiga shimdirilgan paxtani burun tagiga olib boring (1–2 soniyaga). Agar nashatir bo‘lmasa, odekolon bilan artish mumkin. 7. Og‘ir holatlarda nafas va yurakni tekshirish Nafas yoki yurak urishi yo‘q bo‘lsa: Sun‘iy nafas (masalan, “og‘izdan og‘izga”) Yurakni bilvosita massaji (ko‘krakni 100–120 marta daqiqasiga
--	--	--	--	---

				bosish) 8. Agar bemor hushiga kelsa: Sokin yotishini ta'minlang. Suyuqlik bering (masalan, iliq shirin choy), agar qusmayotgan bo'lsa Avval ichib yurgan dori vositalarini o'zi istasa, faqat o'zi qabul qilgan dorilarni bering
9	Yurakni bilvosita massaj qilish texnikasi.	HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION  VectorStock VectorStock.com/6372085   	Sun'iy nafas berish uchun niqob yoki plyonka, avtomatlashtirilgan tashqi defibrillyator, gigiyenik qo'lqoplar, sekunder, yassi va qattiq sirt, antiseptik vositalar.	1. Bemor holatini tayyorlash: Bemor qattiq va tekis sirt ustiga yotqiziladi. Ko'krak va qorin qismini siqib turgan kiyimlardan butunlay ozod qilinadi. 2. Qutqaruvchi bemorning chap tomonida joylashadi. Chap qo'l kafti ko'krak suyagining pastki uchdan bir qismiga, ya'ni hanjarsimon o'simtadan 2-3 sm yuqoriga vertikal holatda qo'yiladi. 3. Qo'llarning joylashuvi: O'ng qo'l chap qo'lning ustiga qo'yiladi. Bunda bilaklar tekis, kaftlar yumshoq bukilgan, barmoqlar esa na chap kaftga, na bemorning ko'kragiga tegmasligi kerak. 4. Ikkala qo'l to'g'ri




va bukilmagan holatda bo'lishi kerak. Qutqaruvchi o'z vaznidan foydalangan holda ko'krak suyagini umurtqa tomon 4–5 sm bosadi. Har bir bosish taxminan 0.5 soniya davom etadi, urishsiz, tiniq ritmda bajariladi. Tezlik: daqiqasiga 60–80 marta.

5. Yurak massaji + sun'iy nafas:
Yurak massaji sun'iy nafas bilan birga olib boriladi. Qutqaruvchilar sonidan qat'i nazar, nafas va bosish nisbati 2:15 bo'lishi kerak (2 marta nafas, 15 marta ko'krak bosilishi)

6 Yurak massajining samaradorlik belgilari:

- a) Massaj vaqtida bo'yin arteriyasida puls sezilishi
- Ko'z qorachig'ining torayishi, yorug'likka reaksiya paydo bo'lishi
- c) Teri rangi pushti rangga kirishi
- d) O'z-o'zidan nafas olish va hushning tiklanishi

10	O'pka sun'iy ventilyatsiyasini o'tkazish	HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION  VectorStock VectorStock.com/6372085    	4 qavat qilib buklangan steril salftkalar, og'iz-halqum naychasi (havo yo'li), AMBU qopchasi bilan birga yuz niqobi.	1. Nafas yo'llarini ochish: Bemorni qattiq va tekis yuzaga yotqiziladi, boshi yon tomonga buriladi. Ko'rsatkich barmoq steril salftka yoki ro'molcha bilan o'ralgan holda, bemorning og'zi va halqumi begona narsalardan tozalanadi. 2."Og'izdan og'izga" usulida sun'iy nafas berish:Yordam ko'rsa tutvchi bemor yoniga joylashadi.Bir qo'l ostidan bemor ning bo'ynini ushlab, ikkinchi qo'l bilan pesho nasini bosadi va boshini maksimal orqa ga egadi. Ikki barmoq bilan burunni bekitadi, ikkinchi qo'li bilan og'izni biroz ochadi. Og'iz orqali mahkam yopib , kuchli va tez nafas (0.8–1.0litr) yuboradi.Bemor passiv ravishda nafas chiqaradi Sanitar-gigiyena uchun nafas berishda steril salftka yoki bintdan foydalaniladi, ammo qalinmato qo'llanilmaydi. Kattalarda nafas chastotasi: daqiqasiga 14–16 marta. To'g'ri bajarilayotganini ko'krak qafasi ning harakati bilan
----	--	--	---	---



aniqlanadi: nafas olayotganda ko'tarilishi, chiqarayotganda tushishi.

3 Og'izdan buro'nga" usulida sun'iy nafas berish: Pastki jag' shikastlanganda yoki og'iz ochilmasa qo'llaniladi. Bosh orqaga egiladi, bir qo'l peshonada, ikkinchisi bilan pastki jag' yuqo riga ko'tariladi va og'iz yopiladi. Burun ni lablari bilan qamrab, nafas yuboriladi.

4. AMBU moslamasi bilan sun'iy nafas: Niqob bemorning yuziga qo'yiladi, og'iz va burunni to'liq yopadi.

Niqobning yuqori (burun qismi) qismi bosh barmoq bilan,



pastki qismi esa III, IV va V barmoqlar yordamida jag'ni yuqoriga ko'tarib mahkamlanadi.

II barmoq niqobning pastki qismini mahkam ushlab turadi. Bosh orqaga egilgan holatda bo'lishi lozim. Bo'sh qo'l bilan Ambu xaltachasi ritmik tarzda siqiladi — nafas yuboriladi.

Nafas chiqishi maxsus klapan orqali




				atmosferaga chiqadi 5. Sun'iy nafas yurak massaji bilan birga qo'llanganda: Tavsiya etilgan nisbat: 2 ta sun'iy nafas : 15 ta yurak siqilishi (2:15). Sun'iy nafas berish vaqtida yurak massaji to'xtatiladi, ammo bu tanaffus 3 soniyadan oshmasligi lozim
11	Pulsoksimetr		pulsoksimetr, ruchka, stul yoki kushetka (mijoz uchun).	Tibbiyot xodim quyidagi qadamlarni bajarishi lozim: Qo'llarni sovun bilan yuving; Pulsoksimetriyani o'tkazishdan oldin tekshirilayotgan barmoqning terisi toza ekanligiga va tirnoq ustida lak yo'qligiga ishonch hosil qiling; Pulsoksimetrini yoqing; Pulsoksimetrini mijozning barmog'iga qo'ying; Bir necha soniya kuting; Pulsoksimetr aniq signalini olganida, ekranda yurak urushi va saturatsiya aks etadi;

12	Oshqozonni yuvish ketma ketligi.	HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION  VectorStock VectorStock.com/6372095    Оборудование для экстренного промывания желудка довольно простое, однако необходимо помнить, что трубка, введенная в желудок, должна быть стерильной.	Steril, yo‘gon me‘da zondi, voronka, 1 chelak yuvish uchun eritma (4,2% li natriy gidrokarbonat eritmasi, suv), 1 litrli ko‘zacha, klyonkali fartuk, klyonka, suv solish uchun tog‘ora, sochiq, “Janye” shpritsi, qo‘lqop.	1 .Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi; 2.Qo‘l yuviladi va quritiladi; 3.Fartuk va qo‘lqop kiyiladi; 4.Bemordan ko‘ylak tugmachalarini yechish so‘raladi; 5.Bemor to‘g‘ri o‘tqaziladi: stulga suyangan holda boshi oldinga engashgan, oyoqlari bir oz ochilgan holda o‘tqaziladi; 6.Bemorning bo‘yin va ko‘kragiga klyonka fartuk tutiladi; 7.Pinset yordamida steril, nam zond olinadi. O‘ng qo‘l bilan yopiq uchidan 10-15 sm oraliqda ushlanadi, chap qo‘l bilan ikkinchi uchi ushlanadi; 8.Me‘daga qancha santimetrda zond kiritilishi aniqlanadi; 9.Bemordan og‘iz ochish va burun orqali chuqur nafas olish so‘raladi. Zondningyopiq uchi til ustiga qo‘yiladi; 10.Bemordan yutinishi so‘raladi. Har bir yutinganda zond asta-sekin
----	----------------------------------	---	---	---



yuboriladi. Zond belgilangan qismigacha kiritiladi;
 11. Zondning ikkinchi uchiga voronka kiygiziladi;
 12. O'rnatilgan voronka bemorning tizzasigacha tushuriladi va yuvush uchun tayyorlangan eritma bilan to'ldiriladi;
 13. Eritma solingan voronka asta-sekinlik bilan ko'tariladi.
 14. Voronka yana asta-sekin tizzagacha tushiriladi va ichidagi suyuqlik tog'oraga tushuriladi;
 15. Muolaja me'dadan toza suv tushguncha 15 -16 marta qaytariladi;
 16. Salfetka bilan zond uchi o'raladi;
 17. Asta-sekinlik bilan zond me'dadan chiqariladi va salfetka bilan artiladi;
 18. Bemor oldidan klyonka olinadi va ishlatilgan asboblarni zararsizlantiriladi;
 19. Qo'lqop va fartuk yechiladi va zararsizlantiriladi;
 20. Me'da yuvilgandan so'ng bemor ahvoli ko'zatiladi.

13.	Sifonli huqna o'tkazish ketma ketligi.	HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION    	Suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka, vazelin, bir martalik qo'lgop, kleyonka fartuk. Steril yo'g'on naycha, lotok, kleyonka, katta taglik, shpatel. Hajmi 1 litrli voronka, 10-12 litr qaynatilgan, harorati 37C li suv solingan idish, 1litr hajmdagi krujka. Voronka, yuvindi suvlar uchun idish. 0,5% gipoxlorid natriy eritmasi	1 .Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi; . Qo'l yuviladi va quritiladi; . Fartuk va qo'lgop kiyiladi; . Bemordan ko'ylak tugmachalarini yechish so'raladi; . Bemor to'g'ri o'tqaziladi: stulga suyangan holda boshi oldinga engashgan, oyoqlari bir oz ochilgan holda o'tqaziladi; 6.Bemorning bo'yin va ko'ragiga klyonka fartuk tutiladi; 7.Pinset yordamida steril, nam zond olinadi. O'ng qo'l bilan yopiq uchidan 10-15 sm oraliqda ushlanadi, chap qo'l bilan ikkinchi uchi ushlanadi; . Me'daga qancha santimetrda zond kiritilishi aniqlanadi; . Bemordan og'iz ochish va burun orqali chuqur nafas olish so'raladi. Zondning yopiq uchi til ustiga qo'yiladi; 10.Bemordan yutinishi so'raladi. Har bir yutinganda zond asta-sekin yuboriladi. Zond belgilangan qismigacha kiritiladi;
-----	--	---	--	---



11.Zondning ikkinchi uchiga voronka kiygiziladi;
 .Oʻrnatilgan voronka bemor tizzasigatushuriladi va yuvush uchun tayyorlangan eritma bilan toʻldiriladi;
 .Eritma solingan voronka asta-sekinlik bilan koʻtariladi.
 .Voronka asta-sekin tizzagacha tushiriladi va ichidagi suyuqlik togʻoraga tushuriladi;
 .Muolaja meʼdan toza suv tushguncha 15 -16 marta qaytariladi;
 16.Salfetka bilan zond uchi oʻraladi;
 .Asta-sekinlik bilan zond meʼdan chiqariladi va salfetka bilan artiladi;
 .Bemor oldidan klyonka olinadi va asboblarni zararsizlantiriladi;
 .Qoʻlqop va fartuk yechiladi va zararsizlantiriladi;
 20.Meʼda yuvilgandan soʻng bemor ahvoli koʻzatiladi.

4.DASTO'RNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIIY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali, Bobosadin ko'chasi, 18-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan ppt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran, videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'quv xonasi, mulyaj, fantom, nazorat savollarining elektron.Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar.

4.3.ADABIYOTLAR RO'YXATI:

4.3.1. Qonunchilik va meyoriy-huquqiy xujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarori.
3. "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab – quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora - tadbirlari to'g'risida" gi Qarori PQ 40-63 18.12.2018 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11noyabr PF 4887-sonli "Aholining sog'lom ovqatlanishi va jismoniy faolligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil
6. 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha meyoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i.
7. 6.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining meyoriy hujjatlari.
8. Kurbonova Z.Ch. "Klinik laboratoriya tashxisi" Darslik. Toshkent – 2023.
9. K.J.Boltaboyev Qon klinik tahlili ko'rsatkichlari va ularning diagnostik ahamiyati.
- 10.Aripov A.N. Fesenko L.M. Aripov O.A.Klinik labarator diagnostika bo'yicha qo'llanma.
- 11.M.A .Jo'rayeva Klinik Labarator Diagnostikasi darslik
- 12.Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya Z.A. Nuruzova., Z.R. Fayzullayeva.,N.T. Yodgorova., F.SH. Mamatmusayeva

4.3.2. Asosiy adabiyotlar.

1. Yu.Ro'ziyeva "Klinik tekshiruvlarni o'tkazishda bemorlarda hamshiralik parvarishi" o'quv qo'llanma 2024- yil

2. B.Gadayeva "Umumiy klinik tekshiruv usullari" o'quv qo'llanma 2024-yil

Elektron adabiyotlar.

1. B. Yo'ldashev T. Usmonov "Umumiy qon taxlili" o'quv qo'llanma 2024-yil

2. Sh.A. Babadjanova. Z.Ch. Kurbonova "Gematologiya" Darslik 2024-yil

4.3.3 Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. «Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi» №0342-17. Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish tadbirlarini tashkil etish.
2. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi bo'yicha o'rta tibbiyot xodimlari uchun o'quv uslubiy qullanma. Toshkent.2009.y
3. O'zbekiston respublikasi sanitariya qoidalari, meyorlari va gigiyenik normativlari. O'zR SanQvaM № 0365 -19.
4. Irgashev SH.B., "Meditinskaya Valeologiya". Toshkent- 2012
5. V.YE.Avakov O.V. Churilova A.M.Sharipov: "Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoj dovrachebnoy pomoshi." 2010 g.
6. Y.Allayorov Y.Tojiboyev: "Favqulotda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.".
7. N.I.Stuklov, G.I.Kozinets, N.G.Tyurina. "Uchebnik po gematologii". Moskva. Prakticheskaya meditsina. 2018 g.
8. Agzamxodjayev T.S., Xaydarov M.B., Ismailova M.U. Tolipov M.G., Babaniyazov K.K. "Klinik laborator tashxislash va tekshiruv usullari". Toshkent – 2016.

9. "Transfuziologiya asoslari" – tibbiyot OTMlari uchun darslik

10."Klinik gematologiya" – o'quv qo'llanma

11.World Health Organization. Blood Transfusion Safety Guidelines

12."Clinical Transfusion Practice Manual" (WHO/IFRC materiallari)

4.3.4. Elektron ta'lim resurslari:

www.edu.uz

www.minzdrav.uz

<http://www.medpoisk.ru/>

<http://www.rusmedserv.com/>

www.medi.ru

www.medlinks.ru

www.medscape.com

www.medland.ru

www.med-lib.ru

5. Oraliq nazorat

Oraliq nazorat – sikl davomida o'quv dasturining (bir necha mavzularni o'z ichiga olgan) moduli tugallangandan keyin tinglovchilarining bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baxolash usuli. Oraliq nazorat test, suxbat, vaziyatli masala yechish, yozma ish, amaliy ko'nikmalarni baxolash yoki ularni

kombinasiyalangan shaklarida o'tkaziladi, aniq ishlab chiqilgan baholash mezonlari bo'yicha baxolanadi va natijalari guruh jurnalida qayd etiladi.

Samarasiz suhbatga olib keluvchi omillar: suhbatni to'satdan yoqimsiz mavzudan boshlash, loqayd yoki mansimay, kibor bilan qarab turish, shaxsiyatga teguvchi savollar berish, besabab sukut saqlash yoki kulish, hurmatsizlarcha to'satdan suhbatni to'xtatish yoki uning mavzusini sababsiz o'zgartirib yuborish, suhbatdoshni gapirishga qo'ymaslik va unga hamdard bo'lmaslik sabab bo'ladi.

Muloqotda savol berish texnikasi

“Ochiq savollar “ suhbatdoshingiz ko'nglidagi, ichidagi dardlarni ochib gapirishida qo'llaniladi: “Qachon?”, “Qanday qilib?”, “Aytolmaysizmi?”, “Menda ko'rsata olmaysizmi?”, “Nega?” kabi savollardan boshlanadi.

“Yopiq savollar” patsiyent suhbatlashishni istamayotganda yoki uning so'zlari kutilayotgan natijani bermasa va nutqi yo'qolgan, gapira olmaydigan (motor afaziya) holatlarda qo'llaniladi. Yopiq savollarga sodda va aniq qilib, “Ha”, “Yo'q” kabi javoblar olinadi.

Muolajadan oldin va keyin qo'llarni gigiyenik yuvish

Kerakli jihozlar va ashyolar: qaychi, oqar suv, suyuq sovun, bir marotaba ishlatiladigan qog'oz o'ramli salfetka , 0,5% li gipoxlorid natriy eritmasi

Bajarish algoritmi:

1Qo'l tirnoqlari kalta qilib olinadi, soat va boshqa taqinchoqlar yechiladi, xalat yenglari qayiriladi.

2Jo'mrakni ochib suv harorati va oqimi me'yorga keltiriladi va qo'llar ho'llanadi.

- 3Qo'lga suyuq sovun tomiziladi va kaft yuzalari bir – biriga ishqalanib ko'pirtiriladi.
- 4Ikkala qo'lning ichki barmoq oralari bir – biriga kiritilib ishqalanadi.
- 5O'ng qo'lning ichki barmoqlari chap qo'lning tashqi barmoq oralariga kiritilib ishqalanadi va aksincha.
- 6O'ng qo'l barmoqlari juftlashtirilib, chap qo'lning ichki kafti yuzasiga barmoqlar uchi aylana harakatlar bilan ishqalanadi va aksincha.
- 7O'ng qo'l bilan chap qo'lning bosh barmog'i yuqoridan pastga qarab aylana harakatlar bilan ishqalanadi va aksincha.
- 8O'ng qo'l bilan chap qo'lning bilak qismi aylana harakatlar bilan ishqalanadi va aksincha.
- 9Qo'llar oqar suv ostida ko'piklari ketguncha yaxshilab chayiladi.
- 10Qo'llar elektroquritgich yoki bir marotaba ishlatiladigan qog'oz salfetka yordamida shimdirib artiladi (bunda ko'llarni iloji boricha salfetkani toza qismiga artish lozim). qog'oz salfetkada suv jo'mragi barmoqlar tegmagan holda yopiladi va salfetka 0,5%li gipoxlorid natriy eritmasiga solinadi.
- ESLATMA:** 1.Ishdan tashqari vaqtlarda qo'llaringiz parvarishiga ahamiyat bering: qo'llaringizni yorilishiga, qadoq bo'lishiga va jarohatlanishiga yo'l qo'ymang (patogen mikroorganizmlarning 90% aynan shu yerlarda to'planadi).
- 2Steril maydonda ishlaganda qo'l yuvishning o'zi yetarli emas. Bunda qo'lni tozalashda maxsus zararsizlantirish usullaridan foydalaniladi.
- 3.Barcha tibbiy muolajalarni bajarishdan oldin qo'lni yuvgach, steril qo'lqop kiying. Bu sizni parenteral yo'l bilan qon orqali o'tadigan kasalliklardan saqlaydi.

Qo'llarni spirtli vosita bilan gigiyenik tozalash

Kerkli ashyolar: etil spirti 70%, glitserin.

Bajarish algoritmi:

1. Qo'l tirnoqlari kalta qilib olinadi, soat va boshqa taqinchoqlar yechiladi, xalat yenglari qayiriladi.
2. 100 ml. etil spirtiga 2 ml. glitserin qo'shib spirtli vosita tayyorlanadi.
- 3.Qo'lga spirtli vosita tomiziladi va kaft yuzalari bir – biriga ishqalanadi.
- 4.Ikkala qo'lning ichki barmoq oralari bir – biriga kiritilib ishqalanadi.
- 5.O'ng qo'lning ichki barmoqlari chap qo'lning tashqi barmoq oralariga kiritilib ishqalanadi va aksincha.
- 6.O'ng qo'l barmoqlari juftlashtirilib, chap qo'lning ichki kafti yuzasiga barmoqlar uchi aylana harakatlar bilan ishqalanadi va aksincha.
- 7.O'ng qo'l bilan chap qo'lning bosh barmog'i yuqoridan pastga qarab aylana harakatlar bilan ishqalanadi va aksincha.
- 8.O'ng qo'l bilan chap qo'lning bilak qismi aylana harakatlar bilan ishqalanadi va aksincha.

Vena ichiga inyeksiya qilish uchun sistemani tayyorlash.

Kerakli jihozlar: disfunktsional krovat, iliq suv, sovun, steril sochig yoki salfetka, steril rezina qo'lqop, shtativ, sistema.

Kerakli xom ashyo: 70% li spirt50 ml, steril qo'lqoplar, sistema.

Bajarilish tartibi:

- 1 Xamshira qo'llarini iliq suvda sovun bilan yuviladi.
- 2 Steril sochiq yoki salfetka bilan artiladi.
- 3 Steril rezinali qo'lqoplar kiyiladi.
- 4 Bemor disfunktsional krovatga yotqiziladi.
- 5 Shtativga dorili sistema qo'yiladi.
- 6 Tomir ichiga dori quyish quyidagicha tayyorlanadi.
- 7 Dori vositasi aralashtiriladi.
- 8 Eritma tomir ichiga sistemaning ignasi orqali kirgiziladi.
- 9 Eritmaning tezligi vrach ko'rsatmasiga qarab qo'yiladi.

Eslatma: Bemor ahvoli doimo nazorat qilinadi

AVO tizimi bo'yicha qon guruhlarini aniqlash.

Kerakli jihozlar: Petri likobchasi, 2xil seriyadagi I-II-III-IV- guruhli zardoblar, retsipyent qoni, shisha tayoqcha, steril qo'lqop, paxta sharchalar
Qon guruhlari 4 guruhda bo'lib ular quyidagicha aniqlanadi.

- 1 Petri likobchasiga 2xil seriyadagi I-II-III-IV- guruhli zardoblardan tomiziladi.
 2. Ustiga retsipyent qonidan 1 tomchidan tomiziladi. Tayekcha bilan aralashtiriladi.
 - 3 Bunda xar bir yacheykadagi qon aralashtirilganidan keyin tayekcha chayib olinadi.
- Agar 1chi va 3chi yacheykalarda agglyutinatsiya sodir bo'lsa- 2 guruh,
1chi va 2chi yacheykalarda agglyutinatsiya sodir bo'lsa 3chi guruh,
uchchala yacheykada agglyutinatsiya sodir bo'lsa 4chi guruh,
uchchala yacheykada xam agglyutinatsiya sodir bo'lmasa 1chi guruh xisoblanadi.

Ryexus tizimi bo'yicha qon guruhini aniqlash.

Kerakli jihozlar: Petri likobchasi, 2xil seriyadagi I-II-III- guruhli zardoblar, retsipyent qoni, shisha tayoqcha, steril qo'lqop. 0,9%-natriy xlorid,

1. Likopchaga 3ta zardob "Anti-rezus zardob" va "nazorat zardob" yozuvlari tagiga 1-2 tomchi reaktivlar tomiziladi.
2. Ikkala aniqlanayotgan qon tomiziladi. Buning uchun bemordan olingan qondan yoki probirka tubidagi eritrotsit qoldig'idan foydalaniladi.
3. Agar barmoqdan qon olinsa, shu hajmdagi zardob qo'shiladi.
4. Qon zardob bilan quruq shisha tayoqcha yordamida aralashtiriladi. 5 daqiqa agglyutinatsiya reaksiyasi bo'lishini kutamiz.
5. Soxta agglyutinatsiyani aniqlash uchun har 3-4 daqiqada har bir tomchiga 5-6 tomchidan 0,9% li natriy xlorid qo'shiladi.
6. Antirezus zardobda eritrotsitlar agglyutinatsiyasi sodir bo'lsa, demak qon rezus musbat (Rh^{+})
7. Agglyutinatsiya sodir bo'lmasa, rezus manfiy (Rh^{-})
8. "Nazorat zardobida" agglyutinatsiya bo'lmasligi kerak. Agar agglyutinatsiya sodir bo'lsa, zardob yaroqsiz hisoblanadi.

Qon guruhi va Rh omili aniqlangan natijalarni hamshira tekshiruv o'tkazayotgan vrachga ko'rsatishi, kasallik tarixiga yozishi, va o'z imzosini qo'yishi shart.

Lyumbal punksiya qilish texnikasi

Kerakli jihozlar: orqa miya punksiyasi uchun igna, kulkop va obrabotka uchun spirt betadin, yuborish uchun kimyo dori vositalari

1. Lyumbal punksiya jaroyoni teri butunligi buzilishi bilan bogliq jiddiy muolaja bo'lganligi sababli bu muolajaga xam boshkalari kabi jiddiy tayorgarlik ko'riladi.
2. Bir marotabalik orqa miya punksiyasi uchun igna, kulkop va obrabotka uchun spirt betadin, yuborish uchun kimyo dori vositalari bemor yoshiga kura kerakli dozada olinadi. Bu muolajada xam albbata steril kulkopdan foydalanish shart. Xamshira kerakli bo'lgan dori vositalari va anjomlarini tayyorlaganidan so'ng lyumbal punksiya jaroyoni boshlanadi.

Bu muolajada xamshira fakat kumakchi sifatida ishtirok etadi. Barcha etaplar shifokor tomonidan bajariladi.

Bemorlardan taxlillar uchun qon olish texnikasi.

Kerakli jihozlar: steril qo'lqop, 1 marotabalik shprits, probirka, spirt, steril sharchalar

1. Bemorni kullay vaziyatga o'tkazib oldindan tayyorlab qo'yilgan 1 marotabalik shprits, taxlillar uchun probirka va obrabotka uchun spirt va steril sharcha yordamida taxlil olinadi.
- 2 Taxlil olishdan avval bemorga taxlil maksadi va qaysi taxlil uchun qon olinayotgani tushuntiriladi.
- 3 Olingan taxlillar zudlik bilan laboratoriya bulimlariga junatiladi. Qon olingan soxa spirtli sharik bilan berkitib boglanadi.

Vyenadan qon olish

Kyerakli jihozlar: inyeksiya stoli, steril va nosteril lotok, yostikcha, jgut, steril probirka shtativi bilan, yo'llanma, suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka, 0,5% gipoxlorid natriy eritmasi, 70% etil spirti, 10 ml shprits, steril paxta sharcha, steril qo'lqop

Bajarish algoritmi:

- 1 Bemorga muolaja maqsadini tushuntirib, roziligi olinadi va qulay sharoit yaratiladi.
- 2 Qo'llar suyuq sovunda yuviladi, bir martalik qog'oz salfetkada quritiladi, steril qo'lqop kiyiladi.
- Bemor o'rnida yotadi yoki stol yoniga o'tkaziladi.
- 3 Bemordan qo'llarini maksimal yozishni so'rab, tirsagi tagiga steril salfetkaga o'ralgan yostiqcha qo'yiladi.
- 4 Bemor yenglarini qayirib, yelkaning pastki 1/3 qismiga jgutni oson yechiladigan qilib bog'lanadi
- 5 Vena tomirlari yaxshi to'lishi uchun bemordan qo'llarini musht qilib ushlashi so'raladi (mushtini bir necha bor ochib yopishi mumkin emas, bu qondagi ayrim ko'rsatgichlarni o'zgarishiga sabab bo'ladi).
- 6 Inyeksiya qilinadigan soha avval kattaroq maydon, so'ngra kichikroq maydon spirtli steril paxta sharcha bilan markazdan periferiyaga qarab, aylana harakatlar bilan 2 marta artiladi.

7Chap qo'lining bosh barmig'i bilan teri biroz pastga tortib fiksatsiya qilinadi, o'ng qo'lda shpritsni olib 2 – barmoq bilan ignani muftasidan, qolgan barmoqlar shprits silindrida teng taqsimlab ushlanadi.

8Igna bilan bir vaqtning o'zida teri va vena devorlarini teshiladi va chap qo'l bilan ignani muftasidan bosib turib, o'ng qo'lda porshen orqaga tortiladi, shpritsda qon paydo bo'lishi vena tomirida ekanligimizdan dalolat beradi.

9Jgutni yechmasdan turib 3 -5 ml xajmidagi qonni shpritsga tortiladi.
so'ngra jgut asta - sekin yechiladi .

10Chap qo'l bilan spirtli steril paxta sharchani qo'yib, ignani muftasidan ushlab tortib olinadi va qo'llar tirsak bo'g'imida buqiladi.

11Shpritsdagi qon probirkaga, devori bo'ylab asta – sekin ko'pirtirmasdan solinadi.

12Shprits va igna zararsizlantirilib, utilizatsiya qilinadi.

13Probirka va yo'llanma raqamlanib, laboratoriyaga jo'natiladi. Asosiy taxlillar och koringa olinishini xisobga olib bemorga darov turib ketmasligi tushuntiriladi

14Qo'llar yuviladi va quritiladi

Infuzion terapiya uchun sistemani tayyorlash, venaga ulash

Kyerakli jihozlar: inyeksiya stoli, steril pinset, lotok, qaychi, leykoplastr, shtativ, suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka, 0,5% gipoxlorid natriy eritmasi, 70% etil spirti, flaqonda dori moddasi, bir martalik steril sistema, steril paxta sharchasi

Bajarish algoritmi:

1Qo'llar suyuq sovunda yuviladi, bir martalik qog'oz salfetskada quritiladi.

2Sistemani germetikligi, yaroqlik muddati tekshiriladi.

3Flaqondagi dori moddasini nomi, dozasi, miqdori, harorati va yaroqlik muddati tekshiriladi.

4Steril pinset bilan flaqonning himoya qopqog'i ochiladi va spirtli steril paxta sharcha bilan zararsizlantiriladi.

5Sistema belgilangan joyidan ochiladi va steril lotokka solinadi.

6Sistemaning 2 ta ignali uchidan ushlab olib, buklangan naychasi tekislanadi.

7Sistemaning filtrli tomizgich tomonidagi igna qopqog'i ochilib flaqonga rezina tiqini orqali kiritiladi.

8Flaqonning tubini tepaga qaratib, shtativga to'ntarib joylashtiriladi va havobergichi ochib qo'yiladi.

9Sistemaning filtrli tomizgichi siqish yo'li bilan yarmigacha dori moddasi bilan to'ldiriladi va vinteli ochilib, lotokga naychadagi havosi to'liq chiqariladi va naycha shtativ ilgagiga ilib qo'yiladi.

10Bemorga muolaja maqsadini tushuntirib, roziligi olinadi va qulay sharoit yaratiladi.

11Qo'lga steril qo'lqop kiyiladi.

12Bemordan qo'llarini maksimal yozishni so'rab, tirsagi tagiga steril salfetskaga o'ralgan yostiqlar qo'yiladi.

Bemor yenglarini qayirib, yelkaning pastki 1/3 qismiga jgutni oson yechiladigan 13qilib bog'lanadi

14 Vena tomirlari yaxshi to'lishi uchun bemordan qo'llarini musht qilib ushlashi so'raladi

15 Inyeksiya qilinadigan soha avval kattaroq maydon, so'ngra kichikroq maydon spirtli steril paxta sharcha bilan markazdan periferiyaga qarab, aylana harakatlar bilan 2 marta artiladi.

16 Chap qo'l bilan teri biroz pastga tortib fiksatsiya qilinadi, o'ng qo'lning ko'rsatgich barmog'i bilan sistemaning ignasi mufta qismidan ushlab, avval teri, so'ngra qon tomir devori teshiladi.

19 Igna muftasida qon paydo bo'lishi vena tomirida ekanligimizdan dalolat beradi, spirli paxta sharchani igna ustiga qo'yib, leykoplastr bilan mahkamlanadi.

20 Sistemaning vinteli ochilib tomchilar tezligi nazorat qilinadi.

21 Bemor ahvoli nazorat qilib turiladi va muolaja tugagach, sistemaning vinteli yopilib, chap qo'l bilan spirtli steril paxta sharchani qo'yib, ignani muftasidan ushlab tortib olinadi va qo'llar tirsak bo'g'imida buqiladi.

22 Ishlatilgan sistema qaychida qirqilib, 0,5% gipoxlorid natriy eritmasida zararsizlantiriladi va utilizatsiya qilinadi.

23 Qo'llar yuviladi va quritiladi

24 Inyeksiya qilinganligi haqida muolaja varaqasiga belgilanadi.

Transfuzion reaksiyalarda birinchi yordam

1. Xar bir gemotransfuziyalar katiy nazorat va tekshiruvlar natijasida bo'lishiga karamasdan xar bir retsiyepentni uziga xosligiga kura bazan bemorlarda qon va qon komponentlarini kuyish davrida reaksiyalar ko'zatilishi extimoldan xoli emas.

2. Bunday vaqtda xamshira zudlik bilan gemotransfuziyani to'xtatadi.

Shifokor ko'rsatmasi bo'yicha tezkor yordam ko'rsatiladi. (Gormonal preparatlar, analgetik va boshkalar)

3. Reaksiya bartaraf etilganidan so'ng xam bemor xamshira nazoratida bo'ladi.

Yangi muzlatilgan plazmani eritish texnikasi.

Kyerakli jihozlar: termometr, suv xammomi, plazma.

1. Yangi muzlatilgan plazmani eritish uchun suv xammomidan foydalaniladi.

2. Suv xammomining xarorati xona xarorati darajasiga qo'yiladi va yangi muzlatilgan plazma malum vaqtga qo'yiladi.

3. Qancha vaqtda eritilishi plazmaning miqdoriga boglik.

Eritrotsitar massani quyish texnikasi.

Kerakli jihozlar: eritrotsitar massa, probirka, standart qon zardobi, eritma, steril qo'lqop, quruq shisha tayoqcha.

1. Eritrotsitar massani shifokor ko'rsatmasiga binoan va shifokor nazoratida bemorga quyiladi.

2. Quyishdan avval donor qon guruhi tekshiriladi

3. Donor qoni va retsiyent qoni mutanosibliги tekshiriladi.

4. Bunda probirkaga bir tomchi donor qoni va bir tomchi retsiyent qon zardobi, 33%li polyuglyukin 1 tomchi, 10,0 ml. 0,9%li natriy xlorid solinadi.

5. Agar donor qoni bemor zardobi bilan aralashtirilgach, agglyutinatsiya belgilari ko'zatilmasa, bu qon AVO sistema bo'yicha bemor qoni bilan mos hisoblanadi.

6. Agar agglyutinatsiya sodir bo'lsa, bu qon yaroqsiz hisoblanadi.

Qon komponentlarini transportirovkasi.

Kerakli jihozlar: maxsus sumka muzlatgich, qon va qon mahsulotlari, muz.

1. Qon va qon komponentlarini transportirovka qilishda ka'tiy koidalarga amal kilinadi.

2. Maxsus sumka muzlatkichda qon va qon mahsulotlari tashiladi.

3. Yangi muzlatilgan plazmalar albatta muz bilan birgalikda sumkada tashiladi.

Dorixonadan dori olish

Kerakli jihozlar: Talabnoma, dori moddalari

Bajarish algoritmi:

1. Talabnomani yozib, kerakli imzolarni qo'ydirgach, bo'lim katta hamshirasi kasalxona dorixonasiga boradi.

2. Talabnomada ko'rsatilgan dorixonada mavjud dorilarni katta hamshira o'sha kuni oladi.

3. Tayyorlashga tavsiya etilgan dorilar ertasiga olinadi.

4. Talabnomaning bir nusxasi dorixonada qoladi. Ikkinchi nusxasi dorixona mudirining dorilarni berilganligini tasdiqlovchi belgisi va imzosi bilan katta hamshiraga qaytariladi.

5. Dorilarni olayotganda katta hamshira dorilarning ko'rinishiga, yaroqlilik muddatiga, steril flaqonlarning germetikligiga alohida e'tibor beradi.

Hisob-kitob daftarlarini, hujjatlarini yuritish

Kerakli jihozlar: Hisob-kitob daftarlari, hujjatlari

Bajarish algoritmi:

1. "A" va "V" ro'yxatdagi dorilar maxsus seyfda saqlanadi va ishlatilganligi maxsus daftarga yozib boriladi.

2. Daftarning barcha varaqlari raqamlanib, ipda tiqiladi.

3. Ipning bo'sh uchi oxirgi varaqqa kog'oz varag'i bilan yelimlanib, mahkamlanadi.

4. Shu kog'ozga daftar varaqlarining soni yozilib, davolash muassasasining dumaloq muxri bosiladi.

5. Daftarning raqamlangan varaqlari A va V ro'yxatdagi dorilarga bo'linadi.

6. Bu daftar seyfda saqlanib, seyf kaliti hamshiralarga berilsa, shu daftarga qayd etiladi.

7. "A" va "V" ro'yxatdagi dorilarni ishlatilishini bo'lim katta hamshirasi nazorat qiladi.

8. Hamshira narkotik vositalarni bemorning kasallik tarixiga yozib tayinlanganidan so'ng qo'llaydi va ma'lumotlarni bemor huzurida kasallik tarixiga va maxsus daftarga qayd etadi.

9. Maxsus daftarda har bir narkotik modda uchun alohida varaqlar ajratilib, quyidagi bo'limlari bo'ladi:

FORMA № 472.

№	Bemorning ismi, sharifi	Tashxisi	Kasallik ixining tartib rakami	Operatsiya nomi	Yuborilgan dori miqdori	Dori yuborilgan sana, vaqti,	Dori xajmi, soni	gan dori xajmi, soni	nshiraning ismi- sharifi, imzosi	rachning ismi sharifi, imzosi	Bemorning imzosi

10. Ishlatilgan ampulalarni hamshira bo‘lim katta hamshirasiga topshiradi.

Ularni davolash muassasasining rahbari boshchiligidagi maxsus komissiya tomonidan taftishdan o‘tkazilib, yo‘qotiladi.

ESLATMA: Zaharli va kuchli ta’sir qiladigan dorilarni noto‘g‘ri saqlagan va talon-taroj qilgan tibbiy xodimlar jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Dorilarni saqlash

Kerakli jihozlar: Dori vositalari, dorilar uchun maxsus shkaflar, „A“ va „V“ preparatlari uchun seyf.

Bajarish algoritmi:

1. Dorixonadan dorilarni olgach, ularni qo‘llash usullariga qarab taqsimlab chiqiladi.
2. Barcha steril eritmalar, flaqonlar va ampuladagi dori vositalari muolaja xonasidagi oynali shkafda saklanadi: bunda birinchi qatorga antibiotiklarni va ularning eritmalarini, ikkinchi qatorga tomchilab yuborish uchun mo‘ljallangan hajmi 200-500 ml gacha bo‘lgan flaqonli eritmalarini, keyingi qatorga „A“ va „V“ guruhiga kirmaydigan eritmalarini, vitaminlarni taxlab chiqiladi.
3. „A“ va „V“ guruh preparatlari maxsus seyfdan saklanadi..
4. „A“ shkafiga VENENA deb yozilib, unda narkotik analgetiklar, atropin va boshqa preparatlar saqlanadi. Shkaf eshigiga dori moddalarining ro‘yxati, bir marotabalik va bir sutkalik dozasi yoziladi.
5. „V“ shkafga HEROIKA deb yozilib, unda kuchli ta’sir qiluvchi dori preparatlari (masalan aminazin) saqlanadi.
6. „A“ va „V“ guruh preparatlari bir seyfdan alohida qulflanadigan bo‘limlarida saqlanadi.
7. Boshqa shkafdagi dori vositalari «ichki», «tashqi», «ko‘z tomchilari» va «inyeksion» guruhlariga ajratiladi.
8. «ichki» va «tashqi» qo‘llanishga mo‘ljallangan dorilarni hamshira postidagi shkafning turli bo‘limlarida belgilangan xolda saklanadi.
9. Tez buziluvchi dorilar (nastoyka, mikstura, qaynatma), zardoblar, vaksina qon preparatlari maxsus – ustiga «dori moddalari uchun» deb yozilgan sovutgichda saklanadi.
10. O‘tkir hidga ega dorilar alohida saklanadi.

11.Yorug'likda parchalanadigan preparatlar qoraytirilgan idishlarda qorong'i joyda saklanadi.

12.Shoshilinch paytda dorilarni topish oson bo'lishi uchun dori moddalari maxsus tartibda joylashtiriladi.

ESLATMA: 1. Dorixonada tayyorlangan tashqi qo'llashga mo'ljallangan dorilar sariq etiketka, ichki qo'llaniladiganlari oq etiketka, steril flaqonlarda ko'k kog'ozli belgiga ega bo'ladi.

2.Dorixonada tayyorlangan eritmalar, tez buziluvchi dorilar (nastoyka, mikstura, kaynatma) ni uch kundan, steril flaqonlarni (agar ochilmagan bo'lsa) bir oydan ortiq saqlash mumkin emas.

3.Tibbiyot hamshirasi dorilarni shaklini, taxlamini o'zgartirishi, bir taxlamdan boshka taxlamga solishga, dori moddasini etiketkasini o'zgartirishga, dori moddalarini etiketkasiz saqlashga xaqqi yo'q.

Kriopretsipitatni quyish texnikasi.

Kerakli jihozlar:eritma,suv hammomi,termometr,steril qo'lqop,steril shprits.

Kriopretsipetatni kuyimdan oldin gemoqonni yozuvidagi yaroqlilik muddatiga etibor karatiladi.Suv xammomida xona xaroratidagi darajaga moslab eritiladi.Shpritsga tortib olinadi. Bemor qulay xolatda yotqizilib,kulkop kiygach vena soxasi obrobotka kilinib sekin-asta yuboriladi

Sternal punksiyani qilish texnikasi va bunda xamshiraning amaliy ko'nikmalari

Kerakli jihozlar:sternal punksiya uchun igna, steril kulkop,obrobotka uchun betadin,spirt va surtma uchun maxsus oynachalar

1Sternal punksiya o'tkazishda xamshira shifokorga yaqin yordamchi xisoblanadi.

2.Sternal punksiya o'tkazish uchun kattalarda kassir ignasi, bolalarda bir marotabalik shprits,steril kulkop,obrobotka uchun betadin,spirt va surtma uchun maxsus oynachalar kerak bo'ladi.

3.Bemor qulay vaziyatda yotkazilib sternal punksiya uchun ko'krak soxasi ochiladi.Barcha muolajalarni vrach bajaradi,hamshira yordamchi sifatida ishtirok etadi.

Mushak orasiga inyeksiya qilish

Kerakli jihozlar: inyeksiya stoli, steril va nosteril lotok, suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka, 0,5% gipoxlorid natriy eritmasi, dori moddasi, 70% etil spirti, 5,0 ml shprits ,paxta sharcha,steril qo'lqop.

Bajarish algoritmi:

1Bemorga muolaja maqsadini tushuntirib, roziligi olinadi va qulay sharoit yaratiladi.

2Qo'llar suyuq sovunda yuviladi, bir martalik qog'oz salfetskada quritiladi, steril qo'lqop kiyiladi.

3Shprits va dori moddasini nomi, yaroqlik muddati, dozasi, miqdori, tiniqligi tekshiriladi.

4Shpritsga dorini tortib, vertikal holda ushlab, havosi chikariladi. Agar shpritsdagi pufakchalar mayda bo'lsa porshenni orqaga tortish kerak, shunda ular bir-biriga qo'shiladi va porshen bilan oson chiqarib yuboriladi.

5Bemor o'rnida yonboshlab yoki qorni bilan yotqiziladi.

6Inyeksiya qilinadigan soha aniqlanadi, dumba sohasini xayolan to'rtga bo'lib, tashqi yuqori qismi (yelka sohasida akromial o'siqdan 3 barmoq pastga, sonning 1/3 tashqi o'rtasi) spirtli paxta sharcha bilan markazdan periferiyaga qarab, aylana harakatlar bilan 2 marta artiladi.

7Chap qo'l bilan inyeksiya qilinadigan sohani tortib yoki burma hosil qilib, o'ng qo'lda shpritsni vertikal holda ushlab, mushak orasiga 90^0 burchak ostida kiritiladi.

8Bunda 5-barmoq igna muftasida, qolgan barmoqlar shprits silindrida teng taqsimlanadi.

9Chap qo'l bilan porshenni orqaga tortib ko'riladi, shpritsda qon yo'kligi igna qon tomirda emasligiga ishonch hosil qilgach, chap qo'lda igna muftasidan ushlab, o'ng qo'lining bosh barmog'i bilan porshenni bosib dori moddasi yuboriladi.

10Spirtli paxta sharchani qo'yib, ignani muftasidan ushlab tortib olinadi va yengil uqalanadi.

11Shprits va igna zararsizlantirilib, utilizatsiya qilinadi.

12Inyeksiya qilinganligi haqida muolaja varaqasiga belgilanadi.

13Qo'llar yuviladi va quritiladi.

ASORATLARI.

1. Aseptikaning buzilishi va eritmalarni yetarli steril emasligi mahalliy yallig'lanish va umumiy haroratni ko'tarilishiga olib keladi.

2.Dori moddalarni dozasini adashib qilinishi (0,9 % natriy xlorid o'rniga 10 % kal'siy xlorid) to'qimalarni nekrozga olib keladi.

Vena ichiga inyeksiya qilish

Kerakli jihozlar: inyeksiya stoli, steril va nosteril lotok, yostikcha, jgut, suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka, 0,5% gipoxlorid natriy eritmasi, dori moddasi, 70% etil spirti, 10 ml shprits steril paxta sharcha, steril qo'lqop

Bajarish algoritmi:

1Bemorga muolaja maqsadini tushuntirib, roziligi olinadi va qulay sharoit yaratiladi.

2Qo'llar suyuq sovunda yuviladi, bir martalik qog'oz salfetskada quritiladi, steril qo'lqop kiyiladi.

3Shprits va dori moddasini nomi, yaroqlik muddati, dozasi, tiniqligi tekshiriladi.

4Shpritsga dorini tortib, vertikal holda ushlab, havosi chikariladi.

5Bemor o'rnida yotadi yoki stol yoniga o'tqaziladi.

6Bemordan qo'llarini maksimal yozishni so'rab, tirsagi tagiga steril salfetskaga o'ralgan yostiqcha qo'yiladi.

7Bemor yenglarini qayirib, yelkaning pastki 1/3 qismiga jgutni oson yechiladigan qilib bog'lanadi (bunda arterial qon oqishini saqlab, venoz qon oqishini to'xtaydi).

8Vena tomirlari yaxshi to'lishi uchun bemordan mushtini bir necha bor ochib yopishi so'raladi.

9Inyeksiya qilinadigan soha avval kattaroq maydon, so'ngra kichikroq maydon spirtli steril paxta sharcha bilan markazdan periferiyaga qarab, aylana harakatlar bilan 2 marta artiladi.

10Chap qo‘lning bosh barmig‘i bilan teri biroz pastga tortib fiksatsiya qilinadi, o‘ng qo‘lda shpirtsni olib 2 – barmoq bilan ignani muftasidan, qolgan barmoqlar shpirts silindrida teng taqsimlab ushlanadi.

11Igna bilan avval terini , so‘ngra vena tomiri devori teshiladi, igna tomirga tushganda bo‘shliqqa tushgandek his bo‘ladi.

12Chap qo‘l bilan ignani muftasidan bosib turib, o‘ng qo‘lda porshen orqaga tortiladi, shpirtsda qon paydo bo‘lishi vena tomirida ekanligimizdan dalolat beradi.

13O‘ng qo‘l bilan jgut asta- sekin yechiladi va porshen yana bir bor tortib ko‘riladi, venada ekanligimizga ishonch hosil qilgach, porshenni bosib dori moddasi sekinlik bilan yuboriladi.

14Chap qo‘l bilan spirtli steril paxta sharchani qo‘yib, ignani muftasidan ushlab tortib olinadi va qo‘llar tirsak bo‘g‘imida buqiladi.

15Shpirts va igna zararsizlantirilib, utilizatsiya qilinadi

16Qo‘llar yuviladi va quritiladi

17Inyeksiya qilinganligi haqida muolaja varaqasiga belgilanadi.

Vena ichiga albumin yuborish texnikasi

1.Albumin bemorda oqsil miqdorini normallashtirish va davo maksadida buyuriladi.

2.Albuminlar xar xil foizlarda va xar xil miqdorda bo‘ladi.Shifokor ko‘rsatmasiga kura bemorga buyuriladi.

3.Albuminni kuyishda xamshira avvalo albumin tugri xaroratda saklanganligiga etibor karatadi

4.Albumin muzlatgichda saklanganligini inobatga olib xona xaroratida bo‘lguncha saklanadi va bunda chaykatib yubormaslik lozim.Kuyishga tayorlangan albumin

5Shifokor nazoratida SAN PIN normalariga asoslangan xolatda bir soat mobaynida yuboriladi.

Immunoglobulinlarni mushak ichiga va vena ichiga yuborish texnikasi

1.Immunoglobulinlar ampula va floqon kurinishida bo‘lib.shifokor ko‘rsatmasi bo‘yicha tomir ichig va mushak ichiga yuborish uchun buyuriladi.

2.Mushak ichiga yuboish buyurilganda bemor qulay sharoitga yotkazilib,

3.Dumba qismini turtan bir qismi urtasiga yani tashki yukoridagi qismi markaziga obrobotkadan so‘ng SAN PIN bo‘yicha chukurroksva sekin-asta yuboriladi.Ineksiyadan so‘ng darxol turib ketmaslik tushuntiriladi.

4.Vena ichiga tomchilab yuborish buyurilganda miqdoriga ko‘ra olti soatgacha bo‘lgan davrga qo‘yiladi.Bu dori vositasi tayorlanish jarayonida chayqalib ketmasligiga qat‘iy amal qilinishi lozim.

Qon o‘rnini bosuvchi suyuqliklarni yuborish texnikasi.

1Qon kuyishga ka‘tiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lmagan vaqtda qon o‘rnini bosuvchi suyuqliklar davo maksadida buyuriladi

2Bunda xamshira SanQ vaM meyorlari bo'yicha flaqonni tayorlab bemor tomiriga ulab kuyadi. Qon o'rnini bosuvchi suyuqliklar xam bir soatdan uch soatgacha bo'lgan davrida tomchilatib qo'yiladi.

Qon o'rnini bosuvchi suyuqliklarni tomchilatib yuborish texnikasi

1.Qon kuyishga qat'iy ko'rsatmalar mavjud bo'lmagan vaqtda qon o'rnini bosuvchi suyuqliklar davo maksadida buyuriladi.

2.Bunda xamshira SaNPiN meyorlari bo'yicha flaqonni tayorlab, bemor tomiriga ulab kuyadi. Qon o'rnini bosuvchi suyuqliklar xam bir soatdan uch soatgacha bo'lgan davrida tomchilatib qo'yiladi.

Bemorga qo'yilgan kateterlarni xolatini nazorat qilish

O'mrov osti katetori qo'yilgan bemorlarni katetyerini nazorat qilish.

1.O'mrov osti katetyeri orqali bemorga turli muolajalar o'tkaziladi

2. Xar bir muolajadan so'ng katetyer orqali geparinni 0,9%li natriy xlorid eritmasida eritib,qo'yilishi shart.

3.Bu kateterda yukoridan kelgan qon kotib qolishini oldini oladi.

4.Bundan tashkari kateterni kizarish xolatlari ko'zatilmasa, xar 3 kunda boglovlari almashtirish kerak.

5Boglovdan oldin katetyer atroflari aylanma xarakat bilan 70⁰S li spirt va betodin bilan artiladi.

6Steril dokali sharik yordamida artib kuritilib steril boglov kuyib berkitiladi.

Angiokart qo'yilgan bemorlarni angiokartlarini nazorat qilish.

1.O'mrov osti katetyeri qo'yilishiga zarurat bo'lmaganida bemorga angiokart qo'yiladi

2Angiokart bemorning yoshiga qarab tanlanadi. Angiokartlar xar xil o'lchamda bo'ladi.

3.Angiokartlarning bemorda turishi 3 kundan ortmasligi kerak aks xolda turli xil asoratlarga olib kelishi mumkin. Angiokartlarni muolaja uchun ochish davrida extiyotkorlik lozim.

4Muolaja tugagandan so'ng geparinli eritmaga botirilgan steril sharcha yordamida yopiladi.

5Angiokartlarni tomirdan chiqarib olgandan so'ng o'rnini spirt, betadin bilan obrabotka qilib boglov qo'yiladi.

6 Bemorga qo'yilgan joyga 3 kungacha suv tegmasligi tushuntiriladi.

Qon orqali yuquvchi infeksiyalarga tahlil uchun qon olish texnikasi

Kerakli jihozlar:steril qo'lqop,steril,shprits,probirka,spirt,steril shariklar

1.Bemorni kullay vaziyatga o'tkazib oldindan tayyorlab qo'yilgan 1marotabalik shprits, taxlillar uchun probirka va obrabotka uchun spirt va steril sharik yordamida taxlil olinadi.

2. Taxlil olishdan avval bemorga taxlil maksadi va qaysi taxlil uchun qon olinayotgani tushuntiriladi.

3Olingan taxlillar zudlik bilan laboratoriya bo'limlariga jo'natiladi. Qon olingan soxa spirtli sharik bilan berkitib boglanadi. Asosiy taxlillar och koringa olinishini xisobga olib bemorga darov turib ketmasligi tushuntiriladi.

OIV va OITS yuktirib olgan bemorlarga muolajalar o'tkazish.

1.OIV va OITS yuktirib olgan bemorlarga xuddi boshka bemorlarga karagan kabi karash lozim, ularni infeksiya yuktirib olganliklarini sir tutitish lozim.

2.Ularga shifokor buyurgan muolajalarni o'tkazish vaqtida teri butunligi buzo'lgan bo'lsa leykoplastir yopishtirib 2 kavat ko'lqop kiyib so'ngra muolaja boshlanadi.

DPM steril zonalari va hamshiraning muolaja xonasini ishdan avval, joriy, yakuniy va batamom tozalash

Kerakli jihozlar : 2 ta chelak, 10 – 15 ta vetosh, 2 ta shvabra, kvars moslamas suyuq sovun, bir marotaba ishlatiladigan qog'oz o'ramli salfetka , 0,5% li gipoxlorid natriy eritmasi, yuvish kukuni

Bajarish algoritmi:

1.Ish kuni boshida muolaja xonasidagi gorizontal sathlarga kechasi bilan o'tirib kolgan changlarni 1 – idishdagi dez. yuvuvchi eritma bilan yaxshilab artiladi. 2 – bo'sh idishga ishlatilgan vetoshlar yig'iladi va zararsizlantirib yuviladi. Havodagi mikroblarga qarshi 30 daqiqaga bakteritsid lampa yokib qo'yiladi. (**Ishdan avvalgi tozalash**)

2. Muolajalarni bajarish davomida yerga tushgan paxta bo'laklarini olib dez. eritmaga tashlab, sachragan qon yoki bemorning boshka biologik suyuqligi bilan ifloslangan joyni har muolajani bajarib bo'lgach , dezinfeksiyalovchi eritma bilan artiladi. (**Joriy tozalash**).

3. Ish kuni oxirida hamma sohalarni, devorni odam bo'yi yetadigan joyigacha dez. yuvuvchi eritma bilan artiladi. (**Yakuniy tozalash**)

4. Bir xaftada bir marta muolaja xonasi batamom tozalanadi. Buning uchun xonani iloji boricha hamma jixozlardan bo'shatiladi yoki jihozlar devordan xona o'rtasiga suriladi. Xona kamida 20 da daqiqa shamollatiladi . Devor, deraza romlari, eshik va polni 1 – chelakdagi iliq dez. yuvuvchi eritma bilan artiladi So'ngra xonani 2 – chelakdagi toza suv bilan yuvib, 20 daqiqaga xavodagi mikroblarga qarshi bakteritsid lampa yokib qo'yiladi. Tozalash xonani shamollatish bilan yakunlanadi. (**Batamom tozalash**)

5. Xonaniig har bir kvadrat metriga 100 ml. hisobida dez.eritma olinadi.

6.5 Yakuniy attestatsiya uchun vaziyatli masalalar **Variant № 1**

Masala №1 Bemor o'qituvchi bo'lib ishlaydi. Shikoyatlari: ta'm bilishni buzilishi, bosh aylanishi, rangparlik, ko'z oldi korongulashuvi. Laborator tekshuruvda umumiy qon analizida gemoglobin ko'rsatgichi - 85 gm/mol aniqlandi.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?

3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?
5. Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

Masala №2 Rejali kurikka kelgan bemor temir tanqisligi anemiyasi bo'yicha ma'lumotlar surab surishtirmokda. o'zida ko'zatilayotgan ba'zi bir simptomlarni sanab o'tdi va shu tashxisni taxmin qilayotganini aytdi.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?
5. Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

Variant № 2

Masala №1 Shoshilinch yordam qabulxonasiga yul-transport xalokatiga uchragan bemorni olib kelishdi. Unda arterial qon ketish xolati ko'zatiyapti. Xushida emas, arterial qon bosimi past, taxikardiya kuzatilmoqda.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?
5. Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

Masala №2 Amaliy mashgulot vaqtida qon guruhini aniqlash mavzusi bo'yicha sinama o'tkazildi. Tayorlab qo'yilgan qon zardoblariga na'munaviy qon tomizilib chiqildi. Qon zardoblari taksimlangan uchchala yacheykada agglyutinatsiya jarayoni ko'zatildi. Qon guruhini aniqlang.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?
5. Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

Variant № 3

Masala №1 Amaliy mashgulot vaqtida qon guruhini aniqlash mavzusi bo'yicha sinama o'tkazildi. Tayorlab qo'yilgan qon zardoblariga na'munaviy qon tomizilib chiqildi. Qon zardoblari taksimlangan uchchala yacheykada agglyutinatsiya jarayoni ko'zatilmadi. Qon guruhini aniqlang.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?
5. Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

Masala №2 Amaliy mashgulot vaqtida qon guruhini aniqlash mavzusi bo'yicha sinama o'tkazildi. Tayorlab qo'yilgan qon zardoblariga na'munaviy qon tomizilib chiqildi. Qon zardoblari taksimlangan birinchi va uchinchi yacheykada agglyutinatsiya jarayoni ko'zatildi. Qon guruhini aniqlang.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?
5. Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

Variant № 4

Masala №1 Amaliy mashgulot vaqtida qon guruhini aniqlash mavzusi bo'yicha sinama o'tkazildi. Tayorlab qo'yilgan qon zardoblariga na'munaviy qon tomizilib chiqildi. Qon zardoblari taksimlangan birinchi va ikkinchi yacheykada agglyutinatsiya jarayoni ko'zatildi. Qon guruhini aniqlang.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?
5. Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

Masala №2 Shifokor ko'rsatmasiga binoan muolaja xonasida bemordan qonning bioximik taxlili uchun qon olish buyurildi.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?
5. Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

Variant № 5

Masala №1 Bemor A.N – ko'ruvchi. Balandlikdan yiqilib, ko'p qon yukotgan. Bemorga operativ yordam berilgan. Yukotilgan qon o'rnini bosish uchun unga gematransfuziya muolajasi o'tkazilmokda. Muolaja vaqtida bemor uzini yomon xis kila boshladi. Kungli aynib, qayt qilish xolati ko'zatildi. Dinamikada arterial qon bosimi tushib ketdi.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?
5. Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

Masala №2 Shifokor ko'rsatmasiga binoan, ogir operativ muolajani boshidan o'tkazgan bemorga albumin kuyish tavsiya kilindi. Bu jarayonga tayyorgarlik kuring.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?
5. Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

Variant № 6

Masala №1 Bemor V.F – talaba. Umumiy xolsizlik va bosh aylanishiga shikoyat qilib keldi. Qonning umumiy taxlilida gemoglobin kamayishi, Umumiy oqsil moddaning kamayishi, zardobdagi ferritin kamayishi xolati aniqlandi.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?
5. Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

Masala №2 Poliklinika qabulxonasiga uchastka bemori temir tanqisligi anemiyasi bo'yicha shikoyatlar bilan murojaat kildi. Temir tanqisligi anemiyasini davolash uchun tabiiy maxsulotlar bo'yicha maslaxatlar suradi.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?
5. Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

Variant №7

Masala №1 Shifoxona qabuliga bemor S.V – uy bekasi, quyidagi shikoyatlar bilan murojaat kildi: qon taxlilida retikulotsitlar ko'payishi, boglanmagan bilirubin oshishi aloxida axamiyat kasb etdi. Palpatsiyada jigar va taloq kattalashuvi aniqlandi.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?
5. Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

Masala №2 Rejali kurikka kelgan bemorni shifokor ko'rsatmasiga binoan trepanobiopsiya muolajasiga tayyorlash buyurildi. Bu muolaja haqida tushunchangiz.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?

5. Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

Variant № 8

Masala №1 Maktab yoshidagi bolalar urtasida rejali mavsumiy kurik o'tkazilganda deyarli ko'pchiligining qon taxlilida eritrotsitlar va gemoglobinning past ko'rsatgichlari aniqlandi. Bu nimadan dalolat beradi?

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?
5. Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

Masala №2 Shoshilinch yordam qabulxonasiga Bemor I.X ni zudlik bilan olib kelishdi. Uning shikoyatlari: bosh aylanishi, xushdan ketish, arterial qon bosimi pastlashi, taxikardiya, umumiy xolsizlik, melena, kofe rangida ko'piksimon kusish.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?
5. Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

Variant № 9

Masala №1 Bemor buxgalter bo'lib ishlaydi. Shikoyatlari: ta'm bilishni buzilishi, bosh aylanishi, rangparlik, ko'z oldi korongulashuvi. Laborator tekshuruvda umumiy qon analizida gemoglobin ko'rsatgichi - 60 gm/mol aniqlandi.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?
5. Parvarish qanday maslaxatlar bera olasiz?

Masala №2 Shoshilinch yordam qabulxonasiga ochik ko'p sonli jaroxat olgan bemorni olib kelishdi. Unda venoz qon ketish xolati ko'zatiyapti. Xushida emas, arterial qon bosimi past borasida, taxikardiya kuzatilmoqda.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?
5. Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

Variant № 10

Masala №1 Bemor B.M – sportchi. Balandlikdan yiqilib, ko'p qon yukotgan. Bemorga operativ yordam berilgan. Yo'qotilgan qon o'rnini bosish uchun unga gematransfuziya muolajasi o'tkazilmokda. Muolaja vaqtida bemor uzini yomon xis kila boshladi. Kungli aynib, qayt qilish xolati ko'zatildi. Dinamikada arterial qon bosimi tushib ketdi.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?
5. Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

Masala №2 Ogir operativ aralashuv o'tkazilgan bemorga shifokor ko'rsatmasiga binoan nemotransfuziya muolajasiga tayyorlash buyurildi. Bu muolaja xaqida tushunchangiz.

Savollar:

1. Sizning taktikangiz?
2. Qaysi mutaxassisga yo'naltirasiz?
3. Qanday qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish kerak?
4. Sizning tashxisingiz?

Parvarish borasida qanday maslaxatlar bera olasiz?

**RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA
XODIMLARINI MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI
IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI ANDIJON FILIALI O'QITUVCHISI
SODIQOVA.G.I NING «GEMATOLOGIYA VA TRANSFUZIOLOGIYADA
HAMSHIRALIK ISHI» YO'NALISHI MALAKA OSHIRISH GURUHLARI
UCHUN TAYYORLANGAN ISHCHI O'QUV DASTURIGA
TAQRIZ.**

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021yil 27 may "Aholiga gematologiya va onkologiya xizmatini ko'rsatishni takomillashtirish to'g'risidagi PQ-5130 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Sogliqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini ta'minlash maqsadida "Gematologiya va transfuziologiyada hamshiralik ishi" o'quv dasturi yaratildi.

O'quv dasturda gematologiya yo'nalishi bo'yicha tegishli mavzular kichik mavzu shaklida qamrab olingan. Har bir mavzu bo'yicha o'quv materiallari ta'riflab berilgan va ushbu mavzuni to'liq o'zlashtirish hamda talabga muvofiq yetarli nazariy va amaliy bilimlarni egallash uchun zarur bo'lgan hajmda taqdim etilgan. "Gematologiya va transfuziologiyada hamshiralik ishi" o'quv dasturi yo'nalishning o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, hamshiralarni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo'ljallangan. Shu sohada faoliyat olib borayotgan hamshiralarni har tomonlama yetuk, ijtimoiy-gumanitar, umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, ularning faoliyatini yanada takomillashtirish, fan bo'yicha yangi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

Ushbu dastur asosida o'qitilgan hamshiralar zamon talablari, tibbiyot fani yutuqlari asosida bilim olishlariga ishonchim komil.

**Gospital terapiya va endokrinologiya
Kafedrasi katta o'qituvchisi**

N.R. Abduvaxobova.



**RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA
XODIMLARINI MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI
IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI ANDIJON FILIALI O'QITUVCHISI
SODIQOVA.G.I NING «GEMATOLOGIYA VA TRANSFUZIOLOGIYADA
HAMSHIRALIK ISHI» YO'NALISHI MALAKA OSHIRISH
GURUHLARI UCHUN TAYYORLANGAN ISHCHI O'QUV DASTURIGA
TAQRIZ.**

Ushbu ishchi dasturi gematologiya bo'limi hamshiralari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan hamshiralari uchun mo'ljallangan.

Ushbu dasturni yaratishdan maqsad umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, isbotlangan tibbiyotga asoslangan davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va tibbiy davolash muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashxislash va parvarishlash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish, sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me'yoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish; tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, shaxslararo muloqot ko'nikmalari asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi; aholi salomatligini saqlash va ijtimoiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda hamshiralik faoliyatini amalga oshirish; gematologiya va transfuziologiya yo'nalishi hamshirasining o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida amaliy harakatlarni tashkil etish; kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olish; mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o'rganish, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilish; kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish, sog'lom psixologik muhitni yarata olish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish; kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

**Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi
Andijon filiali onkogematologiya bo'limi
Mudirasi**



D.B.Rasulova